c) rus tilidan va u orqali Yevropa tillaridan o'zlashtirilgan so'zlar, ularning o'zlashtirilish tarixi, so'z turkumlariga mansublik darajasi, fonetik, semantik va morfologik tarkibidagi o'ziga xosliklar.

6. Mustaqillik yillarida o'zbek tili leksikasida yuz berayotgan jarayonlar.

Mustaqil ish topshiriqlari:

1) ko'rsatilgan adabiyotlarni o'qing va konspektlashtiring;

2) tayanch tushunchalarni eslab qoling: o'z qatlam, o'zlashgan qatlam, umumturkiy so'zlar, sof o'zbek so'zlari, arabcha o'zlashmalar, fors-tojik so'zlari, ruscha baynalminal o'zlashmalar;

3) ixtiyoriy tanlangan matndan o'z va o'zlashgan qatlam so'zlarini aniqlab, ularning fonetik, semantik va morfemik tarkibini tavsiflang.

15-mavzu: So‘z o‘zlashtirish (1 soat)

Adabiyotlar: 11 (2004-yil, 59-61; 2005-yil, 195- 197), 27 (175-180), 32 (86-104).

Yana: 1. Shavkat Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – Toshkent, “Universitet”, 2006, (108-112);

2. M.M. Mirtojdiyev. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, 2004, 195-196.

Mavzuning mazmun mundarijasi:

1. So‘z o‘zlashtirish, uning ikki yo‘li: jonli so‘zlashuv orqali va bosma manbalar orqali so‘z o‘zlashtirish.
2. So‘z o‘zlashtirish usullari: o‘zicha olish va kalkalab olish. kalka usulining turlari:
 - a) grammatik kalka (to‘liq va yarim kalka);
 - b) semantik kalka.
3. So‘z yoki ma’no o‘zlashtirishning chet so‘zlarni qo‘llashdan farqi.

Mustaqil ish topshiriqlari:

- 1) tegishli adabiyotlarni o‘qing va konspektlashtiring;
- 2) quyidagi tayanch tushunchalarni eslab qoling: so‘z o‘zlashtirish, o‘zicha olish, kalkalab olish, semantik kalka, grammatik kalka, to‘liq kalka, yarim kalka;
- 3) ixtiyoriy tanlangan matndan o‘zlashgan qatlam so‘zlarini aniqlang, ularning qaysi usulda o‘zlashtirilganligini tushuntiring.

16 mavzu: Leksemaning ishlatilish doirasi (1 soat)

Adabiyotlar: 11 (2004-yil, 61-67; 2005-yil, 198- 204), 27 (143-151), 32 (112-118).

Yana: 1. Shavkat Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – Toshkent, “Universitet”, 2006, (88-92);

2. M.M. Mirtojdiyev. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, 2004, 196-200.

Mavzuning mazmun mundarijasi:

1. Leksemalarning ishlatilish doirasi haqida ma’lumot: ishlatilish doirasi chegaralanmagan va chegaralangan leksemalar.
2. Ishlatilish doirasi chegaralanmagan leksemalar.
3. Ishlatilish doirasi chegaralangan leksemalar va frazemalar:
 - a) dialektizmlar, ularning turlari, dialektizm-so‘z, dialektizm- ma’no;
 - b) frazeologik dialektizmlar.

4. Dialektizm hodisasining lug'aviy birliklardan boshqa birliklarda uchraydigan ko'rinishlari:

- a) fonetik dialektizmlar;
- b) leksik-fonetik dialektizmlar;
- d) grammatik dialektizmlar.

5. Leksik, frazeologik, fonetik va grammatik dialektizmlarning uslubiy vosita sifatidagi tavsifi.

6. Kasb- hunar leksikasi: professional leksika va terminlar.

7. Kasb- hunar leksikasidan uslubiy maqsadlarda foydalanish hollari.

8. Argotizm va jargonizmlar.

9. Vulgarizmlar

10. Jargonizm va vulgarizmlardan uslubiy maqsadlarda foydalanish.

Mustaqil ish topshiriqlari:

1) ko'rsatilgan adabiyotlarni o'qing va konspektlashtiring;

2) ilmiy va badiiy asarlardan qo'llanish doirasi chegaralangan leksemalar va boshqa til birliklarini aniqlang, ularning shu asar matnidagi ma'nolarini va uslubiy qo'llanilishini tushuntiring;

3) tayanch tushunchalarni eslab qoling: umumxalq lug'aviy birliklar, dialektizmlar, dialektizm-ma'no (semantik dialektizm), fonetik dialektizm, leksik-fonetik dialektizm, grammatik dialektizm, kasb-hunar leksikasi, terminlar, argotizmlar, jargonlar, vulgarizmlar.

17-mavzu: O'zbek tili leksikasida eskirish va yangilanish jarayonlari (leksemalarning zamoniyligi) (1 soat)

Adabiyotlar: 11(2004-yil, 67-73; 2005-yil - 204-210), 27 (-151-164), 32 (106-114).

Yana: 1. Shavkat Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent, "Universitet", 2006, (92-99);

2. M.M. Mirtojdiyev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 2004, 196-197.

Mavzuning mazmun mundarijasi:

1. Tilning lug'at boyligidagi eskirish va yangilanish jarayonlari haqida ma'lumot.
2. Tarixiy so'zlar (leksik istorizmlar).
3. Arxaizmlar: arxaizm – leksema va arxaizm-semema.
4. Arxaiklashish hodisasining grammatik birliklarda uchrashi.
5. Neologizmlar: leksik neologizmlar (neologizm–leksema va neologizm-semema).

Mustaqil ish topshiriqlari:

- 1) ko'rsatilgan adabiyotlarni o'qing va konspektlashtiring;
- 2) zamonaviy va tarixiy mavzularda yozilgan badiiy asarlardan istorizm, arxaizm va neologizmlarni aniqlang, ularning turlarini va qo'llanishdagi uslubiy maqsadlarni tushuntiring.
- 3) tayanch tushunchalarni eslab qoling: istorizmlar, leksik arxaizmlar, arxaiz- leksema, arxaizm-semema, leksik-fonetik arxaizm, leksik neologizm, individual nutq neologizmi, umumtil neologizmi, neologizm- leksema, neologizm-semema.

18-mavzu: O'zbek tili leksikasining emotsional-ekspressiv jihatdan qatlamlanishi (1 soat)

Adabiyotlar: 11(2004-yil, 73-75; 2005-yil - 210-213), 27 (67-71), 32 (119-121).

Yana: Shavkat Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent, "Universitet", 2006, (102-105).

Mavzuning mazmun mundarijasi:

1. Leksemaning uslubiy bo'yog'i.
2. Emotsional-ekspressiv jihatdan betaraf leksemalar.
3. Emotsional –ekspressiv bo'yoqdor leksemalar.
4. Emotsional-ekspressiv bo'yoqdor so'zlarning nutqda qo'llanilishi.
5. Nutqda ekspressivlikning ifodalanishini ta'minlovchi usullar.
 - a) leksik usul;
 - b) kontekstual usul;
 - d) affiksatsiya usuli;
 - e) fonetik usul;
 - f) leksemani metaforik qo'llash usuli.

Mustaqil ish topshiriqlari:

- 1) ko'rsatilgan adabiyotlarni o'qing va konspektlashtiring;
- 2) ilmiy va badiiy asarlardan tanlangan matnni uslubiy jihatdan tahlil qilib, ulardagi leksemalarning emotsional-ekspressiv tavsifini bering;
- 3) tayanch tushunchalarni eslab qoling: uslubiy bo'yoq, emotsional-ekspressivlik, emotsional-ekspressivlikni ifodalashning leksik usuli, affiksatsiya usuli, kontekstual usul, fonetik usul, so'zni metaforik qo'llash.

19-mavzu: Leksemalarning nutq ko‘rinishlariga xoslanishi **(1 soat)**

Adabiyotlar: 11(2004-yil, 75-78; 2005-yil, 213-216), 27(165-131).

Yana: Shavkat Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – Toshkent, “Universitet”, 2006 (99-105).

Mavzuning mazmun mundarijasi:

1. Nutq, uning ko‘rinishlari: adabiy nutq, so‘zlashuv nutqi.
2. Nutq ko‘rinishlariga xoslangan leksik qatlamlar:
 - a) umumiy qatlam so‘zlari;
 - b) nutqning ma’lum ko‘rinishlariga xoslangan so‘zlar:
 - adabiy nutqqa xoslangan so‘zlar;
 - so‘zlashuv nutqiga xoslangan so‘zlar.
3. Nutq ko‘rinishlariga xoslangan leksemalarning badiiy asar tilida qo‘llanilishi.
4. So‘zlarning fonetik tarkibi, grammatik shakllarida nutq ko‘rinishlariga xoslanish.

Mustaqil ish topshiriqlari:

- 1) ko‘rsatilgan adabiyotlarni o‘qing va konspektlashtiring;
- 2) turli funksional stillar (vazifaviy uslublar) asosida yaratilgan bir necha matn tanlab, ulardagi leksema, grammatik shakl va boshqalarni nutq ko‘rinishlariga xoslanish jihatidan tahlil qiling
- 3) tayanch tushunchalarni eslab qoling: adabiy nutq, so‘zlashuv nutqi, umumnutq qatlam so‘zlari, nutqning ma’lum ko‘rinishlariga xoslangan so‘zlar.

VI. FRAZELOGIYA

1-mavzu: Frazzeologiya haqida umumiy ma’lumot **(1 soat)**

Adabiyotlar: 11 (2004-yil, 78-81; 2005-yil, 216-218), 27 (55-61, 74-79), 32 (82-88), 110 (3-5).

Yana: 1. Shavkat Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – Toshkent, “Universitet”, 2006 (418-443).

2. M.M. Mirtojdiyev “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” – Toshkent, 2004(183-190.)

Mavzuning mazmun mundarijasi:

1. Frazzeologiya tilshunoslikning frazemalar haqidagi bo‘limi ekanligi.
2. Frazema – ko‘chma ma’noli turg‘un konstruksiya.
3. Frazemaning ifoda plani (tashqi tomoni, tuzilishi).
4. Frazemaning mazmun plani (ichki tomoni).

5. Frazemalarning soʻz turkumlari boʻyicha guruhlanishi.

Mustaqil ish topshiriqlari:

1 – **topshiriq:** Tegishli adabiyotlardan quyidagilarga javob toping:

- frazema nima?
- nima uchun frazema koʻchma maʼnoli turgʻun konstruksiya sanaladi?
- frazema tarkibidagi soʻzlar qanday bogʻlanadi?
- frazemalar erkin birikmalardan va toʻgʻri maʼnoli turgʻun birikmalardan qanday farqlanadi?
- frazemaning ifoda va mazmun tomonlarini qanday tushunasiz?

2- **topshiriq:** Quyidagi birikmalarni erkin birikma, toʻgʻri maʼnoli turgʻun birikma va koʻchma maʼnoli turgʻun birikma tarzida guruhlab koʻchiring, ularning tafovutlarini tushuntiring:

Oʻzbekiston Respublikasi, paxta dalalari, goʻzal shaharlar, dong taratmoq, dong qotmoq, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi, Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi vazirligi, yoʻldan ozdirmoq, ikki oyogʻini bir etikka tiqmoq, oyogʻini tirab olmoq, oq qogʻoz, keng koʻchalar, xat yozmoq, kitob oʻqimoq, oʻqdan tez, asaldan shirin, Davlat Avtoinspeksiya nazorati, Amerika Qoʻshma Shtatlari, Rossiya Federatsiyasi, oyogʻidan tortmoq, tomdan tarasha tushganday, tishni tishga qoʻyib.

3- **topshiriq:** keltirilgan tayanch tushunchalarni eslab qoling: frazeologiya, frazema, frazemaning mazmun plani, frazemaning ifoda plani.

2-mavzu: Frazeologik monosemiya va polisemiya.

Frazemalarning semantik turlari

(1 soat)

Adabiyotlar: 11 (2004-yil, 81-83; 2005-yil, 219-221), 27 (101-107), 32 (86-88), 110 (5-6). Yana:

- Shavkat Rahmatullayev. Hozirgi adabiy oʻzbek tili. – Toshkent, “Universitet”, 2006 (429-435).
- M.M. Mirtojyev “Hozirgi oʻzbek adabiy tili” – Toshkent, 2004 (189-190.)

Mavzuning mazmun mundarijasi:

- Frazeologik monosemiya.
- Frazeologik polisemiya.
- Frazeologik polisemiyaning maʼno koʻchish qonuniyatlariga asoslanishi.
- Frazemalarning semantik turlari:
 - frazeologik butunliklar;

b) frazeologik chatishmalar.

Mustaqil ish topshiriqlari:

1-topshiriq: Tegishli adabiyotlardan foydalanib, quyidagi savollarga javob toping:

a) frazeologik monosemiya frazemaning ifoda va mazmun planlaridan qaysi biriga xos? Frazeologik polisemiya-chi?

b) frazeologik polisemiya ma'no taraqqiyotining qaysi turiga asoslanadi?

d) frazemaning semantik tarkibida baho semalari (konnotativ semalar) qatnashadimi?

e) frazemalarning qanday semantik turlari bor?

f) frazeologik butunlik va frazeologik chatishmalar qanday farqlanadi?

2-topshiriq: "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati"dan foydalanib, quyidagi frazemalarning semantik tarkibini, ularning bir ma'noli (monosemantik) yoki ko'p ma'noli (polisemantik) ekanligini aniqlang:

Aqli yetmoq, aqli kirmoq, joni chiqmoq, jonidan bezor bo'lmoq, olamdan o'tmoq, tashvish tortmoq, avzoyi buzug, ammanning buzog'i, amri mahol, anqoning urug'i, bag'ri tosh, ta'bi xira bo'lmoq, tilini besh qarich qilmoq, chehrasi ochilmoq, xo'rliigi kelmoq, shishib ketmoq, shodligi ichiga sig'maslik, egardan tushmaslik, ellik og'iz, ep ko'rmaslik, qo'li bormaslik, qo'li ochiq, qo'lini qo'ltig'iga urmoq.

3- topshiriq: Tayanch tushunchalarni eslab qoling: *frazeologik monosemiya, frazeologik polisemiya, ma'no ko'chishi.*

4- topshiriq: Quyidagi frazemalarning semantik turlarini aniqlang: *og'iz ochmaslik, og'zi qulog'ida, o'pkasini qo'ltiqlab, ichi qora, terisiga sig'maslik, barmog'ini bigiz qilmoq, baloga qolmoq, ichini mushuk tatalayapti, ichi achishdi, ko'nngliga qil sig'maydi, ko'nngliga qo'l solmoq, yeng shimarib ishlamoq, to'nini teskari kiymoq, tepa sochi tikka bo'lmoq, yulduzni benarvon urmoq.*

3-mavzu: Frazemalarning shakl va ma'no munosabatlariga ko'ra turlari (1 soat)

Adabiyotlar: 11 (2004-yil, 83-87; 2005-yil, 221-224), 27 (113-115, 123-125, 127- 128, 137- 141, 142-143), 110 (6-9), 110 (5-6).

Yana: Shavkat Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent, "Universitet", 2006 (426-446).

Mavzuning mazmun mundarijasi:

1. Frazemalarning shakl va mazmun munosabatiga ko'ra turlari:

- a) frazeologik omonimlar (omofrazemalar); “omonimiya” va “omonimlik” atamalarining farqlanishi;
 - b) frazeologik paronimlar.
2. Frazemalarning ma’no munosabatiga ko’ra turlari:
- a) frazeologik sinonimlar, ularning frazeologik variantlaridan farqlari;
 - b) frazeologik antonimlar.

Mustaqil ish topshiriqlari:

1-topshiriq: Adabiyotlardan quyidagi savollarga javob toping:

- a) frazemalarning shakl munosabatini qanday tushunasiz?
- b) frazeologik omonimiya va omonimlik qanday farqlanadi?
- d) frazeologik omonimiya va frazeologik sinonimiya o’rtasida qanday farq bor?
- e) frazeologik sinonimiya va frazeologik variatsiya farqlanadimi, yo’qmi?
- f) frazeologik antonimiya hodisasi nimaga asoslanadi?

2-topshiriq: Quyidagi frazemalarning ma’no munosabatiga ko’ra guruhlanishini aniqlang:

- Adi- badi*ga bormoq – “janjanlashuv darajasiga yetmoq”.
- Adi- badi aytishmoq*- “turli mavzuda yengil- yelpi suhbatlashmoq”.
- Adi- badi deyishmoq* – “so’z talashmoq”.
- San-manga bormoq* – “janjallashuv, tortishuv darajasiga yetmoq”.
- San-manga yetib bormoq* – “janjallashuv, tortishuv darajasiga yetmoq”.
- Soyasiga ko’rpacha yozmoq* – “izzat-hurmat qilishni me’yordan o’tkazib yubormoq”.
- Soyasiga ko’rpacha solmoq* – “izzat-hurmat qilishni me’yordan o’tkazib yubormoq”.
- So’zi o’tmoq* – “aytgani inobatga olinmoq”.
- Gapi o’tmoq* – “aytgani inobatga olinmoq”.
- Gapida turmoq* – “ahdini saqlamoq”.
- So’zida turmoq* – “ahdini saqlamoq”.
- Gapidan qaytmoq* – “ahdidan voz kechmoq”.
- So’zidan qaytmoq* – “ahdidan voz kechmoq”.
- Turmushga chiqmoq* – “oila qurmoq”.
- Erga tegmoq* - “oila qurmoq”.
- Turmush qurmoq* - “oila qurmoq”.
- Erdan chiqmoq* – “ajralishmoq”.

3 – topshiriq: Tayanch tushunchalarni eslab qoling: *frazeologik omonimiya, frazeologik paronimiya, omofrazemalar, parafrazemalar, frazeologik variatsiya, leksik-frazeologik sinonimlar, leksik-frazeologik omonimlar.*

**4-mavzu: O‘z va o‘zlashgan qatlam frazemalari
(0,5 soat)**

Adabiyotlar: 11 (2004-yil, 87-b; 2005-yil, 224-2256), 27 (180-183).

Mavzuning mazmun mundarijasi:

1. Frazemalarning tarixan ikki qatlamga mansub bo‘lishi.
2. O‘z qatlam frazemalari.
3. O‘zlashgan qatlam frazemalari.

**5-mavzu: Frazemalarning ishlatilish doirasi va zamoniyligi
(0,5 soat)**

Adabiyotlar: 11 (2004-yil, 87-89; 2005-yil, 225-226 6).

Mavzuning mazmun mundarijasi:

1. Frazemalarning ishlatilish doirasiga ko‘ra guruhlanishi.
2. Ishlatilish doirasi chegaralanmagan frazemalar.
3. Ishlatilish doirasi chegaralangan frazemalar.
4. Kasb-hunarga ko‘ra chegaralanishning frazemalarga xos emasligi.
5. Zamoniyluk belgisiga ko‘ra frazemalarning turlari:
 - a) istorizm frazemalar;
 - b) arxaizm frazemalar;
 - d) neologizm frazemalar;

Mustaqil ish topshiriqlari:

1-topshiriq: Ko‘rsatilgan adabiyotlarni o‘qing va konspektlashtiring.

2-topshiriq: “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”dan (SH.Rahmatullayev) o‘z va o‘zlashgan qatlamga mansub frazemalardan bir nechasini topib, ularning shu qatlamlarga mansubligini belgilovchi omillarni tushuntiring.

3-topshiriq: “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”dan ishlatilish doirasi chegaralangan va chegaralanmagan frazemalarga misol topib, ularning “chegaralangan” va “chegaralanmagan” ekanligi qaysi omillarga asoslanganligini tushuntiring.

4-topshiriq: “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati” yoki “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dan istorizm-frazema, arxaizm-frazema va neologizm-frazemalarga misol toping, ularning zamondoshlik belgilarini aniqlang.

5-topshiriq: Tayanch tushunchalarni eslab qoling: o‘z qatlam frazemalari, o‘zlashgan qatlam frazemalari, dialektizm-frazema, istorizm-frazema, arxaizm-frazema.

VII. Leksikografiya

1-mavzu: Leksikografiya haqida ma'lumot (1 soat)

- Adabiyotlar: 4 (82-89) 11 (2004-yil, 90-94; 2005-yil, 227-232), 27 (183-186).
Yana: 1. Shavkat Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent, "Universitet", 2006, (112-113).
2. M.M. Mirtojdiyev "Hozirgi o'zbek adabiy tili" – Toshkent, 2004, 206-220.

Mavzuning mazmun mundarijasi:

1. Leksikografiya tilshunoslikning lug'atchilik bilan shug'ullanuvchi sohasi ekanligi.
2. Leksikografiyaning vazifalari.
3. Lug'atlarning ko'zlangan maqsadga ko'ra turlari:
 - a) ensiklopedik lug'atlar, ularning turlari (universal ensiklopediyalar va soha ensiklopediyalari);
 - b) lisoniy (lingvistik) lug'atlar, ularning turlari (umumiy va xususiy lug'atlar);
4. Tanlangan tillar miqdoriga ko'ra lug'at turlari:
 - a) bir tilli lug'atlar;
 - b) ikki tilli lug'atlar;
 - d) ko'p tilli lug'atlar;
5. So'z yoki atama ma'nolarining yoritilishiga ko'ra lug'at turlari:
 - a) izohli lug'atlar;
 - b) izohsiz lug'atlar.
6. Obyekti va predmetiga ko'ra lug'at turlari:
 - a) terminologik lug'atlar;
 - b) frazeologik lug'atlar;
 - d) orfografik lug'atlar (imlo lug'atlari);
 - e) orfoepik lug'atlar;
 - f) antroponimlar lug'ati;
 - g) toponimlar lug'ati;
 - h) sinonimlar lug'ati;
 - i) chastota lug'ati;
 - j) dialektologik lug'atlar;
 - k) o'zbek tili tarixiga oid lug'atlar;
 - l) internatsional so'zlar lug'ati;
 - m) teskari (chappa) lug'at;
 - n) etimologik lug'atlar;
 - o) maqol va matallar lug'ati;
 - p) omonimlar lug'ati;
 - r) antonimlar lug'ati;

Mustaqil ish topshiriqlari:

1 –topshiriq: Tegishli adabiyotlardan foydalanib, quyidagi savollarga javob toping:

- a) leksikografiya nima?
- b) leksikografiyaning vazifa doirasiga nimalar kiradi?
- d) lug'atlar ko'zlangan maqsadga ko'ra qanday tiplarga bo'linadi?
- e) ensiklopedik va lisoniy lug'atlar qanday farqlanadi?
- f) umumiy va xususiy (maxsus) lug'atlar qanday farqlanadi?
- g) tanlangan tillar miqdoriga ko'ra lug'atlarning qanday turlari bor?
- h) izohli va izohsiz lug'atlarning asosiy farqi nimada?
- i) obyekt va predmetiga ko'ra lug'atlar qanday turlarga bo'linishi mumkin?

2- topshiriq: Quyidagi lug'at maqolalarini o'qing. Ulardan qaysi biri ensiklopedik lug'atga, qaysinisi lisoniy (lingvistik) lug'atga tegishli bo'lishini aniqlang.

- **Ko'z** – ko'rish a'zosi; umurtqasiz ba'zi hayvonlar (jumladan, hasharotlar, bosh-oyoqli molluskalar), umurtqali barcha hayvonlar va odam yorug'lik ta'sirlarini ko'z bilan sezadi.

Umurtqali hayvonlar va odamning juft ko'zlari kallaning ko'z kosolari degan chuqurchalarida (orbitalarida) bo'lib, ko'z soqqasi (ko'ruv analizatorining periferik qismi – asli ko'z) va qo'shimcha qismlar (ko'z qovoqlari, ko'z yoshi apparati va ko'zni harakatlantiruvchi mushaklar)dan iborat...

Ko'z – Tirik mavjudotning ko'rish a'zosi. *Qora ko'z. Ko'k ko'z. Xumor ko'z. Ayagan ko'zga cho'p tushar. Maqol. Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi: Maqol. Ko'z qo'rqoq, qo'l botir. Maqol...*

Nazar, nigoh, qarash... *Ko'z tashlamoq- nazar tashlamoq, qaramoq, bir qarab qo'ymoq...*

Ko'rish qobiliyati. *Ko'zi o'tkir, Ko'zi xira. Ko'zi ojiz...*

Narsalarning biror belgi bilan ajralib turadigan ma'lum qismi, bo'lagi. *Derazaning ko'zi. Yog'ochning ko'zi. Buloqning ko'zi. Uzukning ko'zi. Xurjunning ko'zi...*

3-topshiriq: Tayanch tushunchalarni eslab qoling: *leksikografiya, ensiklopedik lug'atlar (qomusiy lug'atlar), lisoniy lug'atlar (lingvistik lug'atlar), universal ensiklopediyalar, soha ensiklopediyalari, bir tilli lug'atlar, ko'p tilli lug'atlar, izohli lug'atlar, izohsiz lug'atlar, terminologik lug'atlar.*

2- mavzu: Lug'at maqolalarining joylashtirilish tartibi va maqola sxemalari (0,5 soat)

Adabiyotlar: 11 (2004-yil, 95- 99; 2005-yil, 232-237).

Mavzuning mazmun mundarijasi:

1. Lug'atlarda maqola nomlarining joylashtirilish tartibi.
 - a) tashqi tartib;
 - b) ichki tartib;
 - d) ma'no tartibi (semantik prinsip).
2. Lug'at maqolalarining sxemalari:
 - a) lingvistik lug'atlarda maqola sxemalari;
 - b) ensiklopedik lug'atlarda maqola sxemalari (davlat haqidagi maqola sxemasi, millat yoki xalq xaqidagi maqola sxemasi, biografik maqola sxemasi va b.lar).

Mustaqil ish topshiriqlari:

1 – topshiriq: Tegishli adabiyotlardan quyidagi savollarga javob toping:

- a) lug'at maqolalarining joylashtirilishi qanday tartibda amalga oshiriladi?
- b) lug'at maqolalarining tashqi tartib asosida joylashtirilishida nimalar hisobga olinadi?
- d) lug'at maqolalarining ichki tartib asosida joylashtirilishini qanday tushunasiz?
- e) ma'no tartibida joylashtirishning qanday shartlari bor?
- f) lug'at maqolalarining sxemalari haqida nimalarni bilasiz?
- g) ensiklopedik (qomusiy) va lisoniy lug'at maqolalari sxemalarida farqlar bormi?

2 – topshiriq: Gazeta, jurnal yoki ixtiyoriy tanlangan kitobdan 400-500 so'z yoki birikmali nom tanlang. Har bir so'zni yoki so'z birikmasi qolipidagi nomni alohida kartochnalarga (shakli va hajmi bir xil qilib qirqilgan qog'oz bo'laklariga) yozing, so'ng shu kartochnalarni lug'at maqolalari tartibi asosida birin-ketin joylashtirib, kartoteka fondi tuzing.

3 – topshiriq: Tayanch tushunchalarni eslab qoling: *tashqi tartib, ichki tartib, ma'no tartibi, lug'at maqolalari sxemalari...*

3-mavzu: O'zbek lug'atchiligi tarixidan qisqacha ma'lumot (0,5 soat)

Adabiyotlar: 11 (2004-yil, 100-104; 2005-yil, 237-243).

Yana qarang: G. A. Abdurahmonov, Sh. Shukurov. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. –Toshkent, "O'qituvchi", 1973, 8-9 betlar.

Mavzuning mazmun mundarijasi:

1.O'zbek lug'atchiligi tarixining eski turkiy til lug'atchiligi va arab tili lug'atchiligi tarixi bilan bog'liq davri (XI- XIII asrlar lug'atchiligi).

2.O'zbek lug'atchiligi tarixining chig'atoy (eski o'zbek) tili davri (XIV-XIX asrlar).

3.XIX asrning ikkinchi yarmida O'zbekistonda lug'atchilik.

4.XX asrning birinchi yarmida O'zbekistonda lug'atchilik.

5.XX asrning ikkinchi yarmida O'zbekistonda lug'atchilik.

Mustaqil ish topshiriqlari:

1-topshiriq: Ko'rsatilgan adabiyotlarni o'qib, quyidagi savollarga javob bering:

a) XI-XIII asrlarda qadimgi turkiy va eski turkiy tillarga oid qanday lug'atlar yaratilgan ?

b) "Devonu lug'otit turk" asarining muallifi kim va lug'at qachon yozilgan?

d) "Devonu lug'otit turk" asarini o'zbek tiliga kim va qachon tarjima qilgan?

e) Eski o'zbek tili davrida qanday lug'atlar yuzaga keldi?

f) A. Navoiy asarlari tili asosida qanday lug'atlar yaratilgan?

g) XIX asrning ikkinchi yarmida yaratilgan lug'atlardan qaysilarini bilasiz? (yili, muallifi?)

h) XX asrning birinchi yarmida qanday lug'atlar yaratildi? XX asrning ikkinchi yarmida-chi?

2-topshiriq: "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati"dan eski o'zbek tiliga mansub so'zlardan bir nechtasini topib, ularning mazmun jihatini(semantik tarkibini) tahlil qiling: avvalgi ma'nolarini (hozir arxaiklashgan leksik ma'nolarini) va hozir ham saqlangan ma'nolarini aniqlang.

VIII. Mustaqil nazorat uchun savolnoma va topshiriqlar

1. Og'zaki nazorat uchun savolnoma va topshiriqlar

Kirish

- 1."Hozirgi o'zbek tili" kursining obyekti, maqsadi va vazifalari.
2. Hozirgi o'zbek tilining leksik-semantik meyorlari haqida ma'lumot bering.
3. Adabiy tilning taraqqiyotida lingvistik va ekstralingvistik omillarning roli.
4. Adabiy til meyorlari (fonetik tizim va grammatik qurilish bo'yicha).
5. Hozirgi o'zbek tilining tarixiy ildizlari haqida ma'lumot bering.
6. Adabiy tilning yashash formalari (og'zaki va yozma shakllari) haqida ma'lumot bering.
7. Adabiy til va shevalar o'rtasidagi munosabatlar.

Fonetika va fonologiya

8. Fonetikaning fizik-akustik aspekti haqida ma'lumot bering.
 9. Fonetikaning anatomik-fiziologik aspektida nimalar o'rganiladi?
 10. Fonetikaning tekshirish uslubi va maqsadiga ko'ra turlari.
 11. Fonologik oppozitsiyalar (zidlanishlar) haqida ma'lumot bering.
 12. Korrelatsiya, uning fonologik sistemadagi o'rni. Abu Ali ibn Sinoning fonologik korrelatsiyaga oid fikrlari.
 13. Fonetik birliklarning tildagi vazifalari.
 14. Fonetikaning obyekti va maqsadi.
 15. Fonemalarning integral va differensial belgilari haqida ma'lumot bering.
 16. Fonema ottenkalaridan birining o'rnida boshqasi qo'llanadimi? "Fonema ottenkalari" tushunchasiga kim asos solgan?
 17. Transkripsiya haqida ma'lumot bering.
 18. Hozirgi o'zbek adabiy tili vokalizmi.
 19. Hozirgi o'zbek adabiy tili konsonantizmi, undagi munozarali masalalar haqida ma'lumot bering.
 20. Undosh fonemalar tasnifi va tavsifi.
 21. Fonemalar adaptatsiyasi (moslashuv), uning turlari haqida ma'lumot bering.
 22. Undosh tovushlarning fokuslari. Bir fokusli va ikki fokusli undoshlar.
 23. Fonemalarning kombinator va pozitsion ottenkalari haqida ma'lumot bering.
- Fonema qatori nima?
24. Tovush tushishi, uning turlari.
 25. Tovush orttirilishi, uning turlari.
 26. Dissimilyatsiya, uning turlari.
 27. Metateza, uning turlari.
 28. Spirantizatsiya.
 29. Singarmonizm, uning turlari.
 30. *Men, sen* olmoshlari tushum va qaratqich kelishiklarida turlanganda qanday fonetik hodisa sodir bo'ladi? Bu hodisaning nomi nima?
 31. Bo'g'in, uning tiplari, tildagi ahamiyati. Bo'g'in markazi.
 32. Aksentuatsiya (urg'ular tizimi): so'z urg'usi, sintagma urg'usi, ayiruv urg'usi.
 33. Intonatsiya, uning turlari va prosodik elementlari. Intonatsiyaning gap qurilishidagi roli.
 34. Fonetik so'z nima? Uning til va nutqdagi ahamiyati.
 35. Segment va supersegment birliklar.
 36. Umumiy fonetika nimani o'rganadi? Xususiy fonetika -chi?
 37. Tavsifiy va tarixiy fonetika.
 38. Qiyosiy va eksperimental fonetika. Ularning vazifalari.
 39. Fonetikaning lingvistik-funksional aspekti. Fonologiya haqida ma'lumot.
 40. Artikulyatsiya bosqichlari: ekskursiya, ish holati, rekursiya.

Grafika va orfografiya

41. Grafika - yozuv tizimining yetakchi komponenti.
42. Yangi (lotincha) va amaldagi(kirillcha) o'zbek alifbolari haqida tarixiy va tafsifiy ma'lumot.
43. Fonografik yozuvning grafik tizimi haqida ma'lumot bering.
44. Fonografema va logografemaning farqini tushuntiring.
45. Grafika va orfografiya o'rtasidagi farqlar.
46. Grafema nima? Uning qanday tiplari bor?
47. Prosodemografemalar to'g'risida ma'lumot bering.
48. Raqamlar grafemalarning qaysi turiga kiradi?
49. Kirillcha o'zbek alifbosi qachon qabul qilingan? Unda nechta harf bor?
50. Yangi(lotincha) o'zbek alifbosi qachon qabul qilingan? Unda nechta harf bor?
51. Yangi(lotincha) o'zbek yozuvining imlo qoidalari qachon qabul qilingan? U necha bo'limdan iborat (Bo'limlarning nomlanishi, mazmuni)
52. Grafika va orfografiya qanday farqlanadi?
53. Qanday belgilar noharfiy grafemalar sanaladi?
54. Orfografiyaning tarixiy – traditsion prinsipi haqida ma'lumot bering.
55. Orfografiyaning morfologik va simvolik prinsiplari.
56. Orfografiyaning fonetik va fonematik prinsiplari qanday farqlanadi?
57. Kirillcha o'zbek yozuvining imlo qoidalari qachon qabul qilingan? U necha bo'limdan iborat (Bo'limlarning nomlanishi, mazmuni...)
58. Yangi (lotincha) va amaldagi (kirillcha) o'zbek alifbolaridagi tafvotlar.
59. O'zbek yozuvidagi islohotlar to'g'risida tarixiy ma'lumot.
60. Yangi (lotincha) va amaldagi (kirillcha) o'zbek alifbolaridagi tafvotlar.
61. Kirillcha o'zbek yozuvi imlo qoidalarning so'nggi nusxasi qachon tasdiqlangan. Yangi (lotincha) o'zbek yozuvi imlo qoidalari-chi?
62. Amaldagi "O'zbek orfografiyasining asosiy qoidalari" (1956) qanday bo'limlardan tarkib topgan? (bo'limlarning nomlanishi)
63. Nima uchun grafema bilateral hodisa sanaladi?
64. Grafemaning ifoda planiga ko'ra qanday turlari bor?

Orfoepiya

65. Orfoepiya haqida ma'lumot bering. Adabiy talaffuzning til va jamiyat munosabatlaridagi roli.
66. Ayrim tovushlar orfoepiyasi (i, u unililari talaffuzi).
67. Ayrim tovushlar orfoepiyasi (o', o, a unililari talaffuzi).
68. *Tor* va *kor* so'zlari boshidagi undoshlar qaysi fonologik ziddiyat a'zolari bo'ladi?
69. Ayrim tovushlar orfoepiyasi (b, d undoshlari talaffuzi).
70. So'z qismlari talaffuzi: *ong + la > angla*, *son + a > sana*, *oq + gan > oqqan* (qaysi ko'rinishlari meyor hisoblanadi? Sababi?)
71. Boshqa tillardan o'zlashtirilgan ayrim so'zlar orfoepiyasi.

Leksikologiya, frazeologiya va leksikografiya

72. Leksikologiya, uning turlari va tilshunoslikning boshqa bo'limlari bilan aloqasi.
73. So'zning leksik birlik sifatidagi mohiyati.
74. Leksemaning semantik tarkibi.
75. Leksik ma'noning semantik tarkibi.
76. Termin nominativ birlik sifatida.
77. Leksemaning uzual va okkazonal ma'nolari.
78. Leksik monosemiya va polisemiya. Leksik ma'no taraqqiyoti.
79. Leksik ma'no tiplari.
80. Leksik sinonimiya.
81. Leksik antonimiya.
82. Leksik omonimiya.
83. Paronimiya, uning omonimlar, kvaziomonimlar va so'z variantlaridan farqi.
84. Giponimiya. Graduonimiya. Partonimiya.
85. O'zbek tili leksikasining tarixiy taraqqiyoti.
86. So'z o'zlashtirish, uning usullari va yo'llari.
87. Leksemalarning ishlatilish doirasi.
88. O'zbek tili leksikasida eskirish va yangilanish jarayonlari.
89. O'zbek tili leksikasining emotsional – ekpressiv jihatdan qatlamlanishi.
90. Leksemalarning nutq ko'rinishlariga xoslanishi.
91. Frazeologiya. Frazema ko'chma ma'noli turg'un konstruksiya sifatida.
92. Frazemaning semantik turlari.
93. Frazemalarning shakl va ma'no munosabatlariga ko'ra turlari.
94. Frazemalarning ishlatilish doirasi va zamoniyligi.
95. Leksikografiya. Lug'at tiplari.
96. Lug'at maqolalarining joylashtirilish tartibi va maqola sxemalari
97. O'zbek lug'atchiligi tarixi.

2. Yozma nazorat ishlari

A. Kirish, fonetika va fonologiya

1-Oraliq nazorat uchun variantlar (uch topshiriqli variantlar):

1-variant

1. "Hozirgi o'zbek tili" kursining obyekt, maqsadi va vazifalari nima?
2. Fonetik birliklar va ularning turlari?
3. *Til* va *dil* so'zlari boshidagi fonemalar qaysi oppozitsiyaga (zidlanishga) mansubligini aniqlang.

2-variant

1. Nima uchun adabiy til milliy tilning o'liy shakli sanaladi?
2. Fonetik birliklarning til va nutqdagi vazifalari?
3. **Kir** va **qir** so'zlaridagi unli va undoshlarning integral va differensial belgilarini aniqlang.

3-variant

1. Adabiy til bilan dialekt, sheva va funksional stillar (vazifaviy uslublar) qanday farqlanadi?
2. Fonetikaning obyekt, maqsadi va vazifalari nima?
3. **Ko'l** va **qo'l** so'zlaridagi unli fonemalarni tavsiflang.

4-variant

1. Adabiy tilning qanday formalari (shakllari) bor, ular nimalarga asoslanadi?
2. Fonetik so'z nima?
3. Ikki fonemali (bir bo'g'inli) ikkita so'z toping, ulardagi fonemalarning differensial belgilarini aniqlang.

5-variant

1. Adabiy til taraqqiyoti qanday omillarga tayanadi?
2. Fonetikaning tekshirish uslubi va maqsadiga ko'ra turlari.
3. Uch fonemali (bir bo'g'inli) ikkita so'z (kvaziomonim) toping, ulardagi fonemalarning differensial belgilarini aniqlang.

6-variant

1. Adabiy til va davlat tili tushunchalari o'rtasidagi munosabatlarni qanday tushunasiz? Davlat tili haqidagi qonun qachon qabul qilingan? Uning yangi tahriri-chi?
2. Umumiy fonetika nimani o'rganadi? Xususiy fonetika- chi?
3. **Tor** va **dor** so'zlari boshidagi fonemalar qaysi oppozitsiyaga (zidlanishga) mansubligini, ularning integral va differensial belgilarini aniqlang.

7-variant

1. Hozirgi o'zbek adabiy tilining qanday tarixiy ildizlari bo'lgan? Bulardan xabardor bo'lishning amaliy ahamiyati nimada?
2. Tafsifiy (sinxron) va tarixiy fonetikalar qanday farqlanadi?
3. **Bosh** va **dor** so'zlari boshidagi b, d fonemalari qaysi oppozitsiyaga (zidlanishga) mansubligini aniqlang.

8-variant

1. Qadimgi turkiy til vokalizmi qanday unillardan tarkib topgan, bu tizimda tilning gorizontal harakati fonologik belgi sanalganmi?
2. Qiyosiy fonetika va eksperimental fonetikada nimalar tadqiq etiladi? Bu sohalarda ishlagan va ishlayotgan o'zbek tilshunoslardan kimlarni bilasiz?
3. **Tor** va **kor** so'zlari boshidagi fonemalar qaysi oppozitsiyaga (zidlanishga) mansubligini aniqlang.

9-variant

1. Hozirgi o'zbek tili vokalizmi bilan eski o'zbek tili vokalizmi o'rtasida qanday o'xshashlik va tafovutlar bor?

2. Fonetikaning fizik-akustik aspektida nimalar o'rganiladi?

3. Ikki fonemali (bir bo'g'inli) ikkita so'z (kvaziomonim) toping, ulardagi fonemalardan qaysilari fonologik zidlanish (oppozitsiya) hosil qilishini aniqlang.

10-variant

1. Vokalizm sistemasidagi kontrast juftliklarni qanday tushunasiz? Bunday juftliklar hozirgi o'zbek adabiy tili vokalizmida bormi?

2. Tafsifiy (sinxron) va tarixiy fonetika sohasida ishlagan va ishlayotgan o'zbek tilshunoslaridan kimlarni bilasiz?

3. *Bur-bo'r-bor* so'zlaridagi unlilar qaysi belgilari asosida oppozitsiya hosil qiladi?)

11-variant

1. Qadimgi turkiy til konsonantizmi qanday undoshlardan tarkib topgan? Eski o'zbek adabiy tili konsonantizmi-chi?

2. Tovushning balandligi nima?

3. *Bir-ber-bar* so'zlaridagi unlilar qaysi belgilari asosida oppozitsiya hosil qiladi?

12-variant

1. Hozirgi o'zbek tili va qadimgi turkiy til undoshlari tizimining asosiy farqlari nimada?

2. Un (ovoz) paychalarining bitta to'la tebranishini qanday tushunasiz? Tebranish chastotasi nima? U qanday o'lchanadi?

3. *Karam* va *qaram* so'zlaridagi "a" unlisiga xarakteristika bering.

13-variant

1. Fonematika va prosodika nima? Ular qanday farqlanadi?

2. Bo'g'in turlari va tasnifi?

3. Uch fonemali (bir bo'g'inli) ikkita so'z (kvaziomonim) toping, ulardagi fonemalarning differensial belgilarini aniqlang.

14-variant

1. Hozirgi o'zbek adabiy tilining dialektal asoslari haqida qanday fikrlar bor?

2. Tovush tembri nima? Formantlar-chi?

3. *Karam* va *qaram* so'zlaridagi fonemalarni, fonema ottenkalarini aniqlang

15-variant

1. Qadimgi turkiy tildan hozirgi o'zbek adabiy tiligacha bo'lgan tarixiy taraqqiyot jarayonida fonemalarning paradigmatic va sintagmatic xususiyatlarida qanday o'zgarishlar yuz bergan?

2. Melodikaning til va nutqdagi ahamiyatini qanday tushunasiz?

3. *To'sh* va *qo'sh* so'zlaridagi "o" unlisiga xarakteristika bering.

16-variant

1. Qadimgi turkiy tildan hozirgi o'zbek adabiy tiligacha bo'lgan davrda tilning leksik sathida qanday o'zgarishlar yuz bergan?

2. Nutqda tonning baland-past tarzda to'liqlanishi – intonatsion ton modulatsiyasi nimani hosil qiladi?

3. *Osh* va *ish* so'zlaridagi unilarning integral va differensial belgilarini aniqlang.

17-variant

1. Qadimgi turkiy tildan hozirgi o'zbek adabiy tiligacha bo'lgan tarixiy taraqqiyot jarayonida tilning grammatik sathida qanday o'zgarishlar yuz bergan?

2. Tovush kuchi nima? U qanday o'lchanadi? Tovush kuchining nutqda qanday ahamiyati bor?

3. *Gurullamoq* va *g'ururlanmoq* so'zlaridagi unli fonemalarning variantlarini (allofonlarini) aniqlang.

18-variant

1. Singarmonizm nima, hozirgi o'zbek adabiy tilida singarmonizm saqlanganmi? Shevalarda-chi?

2. Infratovush va ultratovushlar nimasi bilan farqlanadi?

3. *Tosh-bosh-mosh* so'zlari boshidagi undosh fonemalarning integral va differensial belgilarini aniqlang.

19-variant

1. O'zbek tili shevalari qanday lahjalarga birlashadi?

2. Tovush tembrining til va nutqdagi ahamiyati nimadan iborat?

3. *Kir* va *qir* so'zlaridagi unli va undosh.arning integral va differensial belgilarini aniqlang.

20-variant

1. "Hozirgi o'zbek tili" kursining qanday bo'limlari bor? Ularda adabiy tilning qaysi sathlari, tizimlari va shakllari haqida ma'lumot beriladi?

2. Tovush cho'ziqligini qanday tushunasiz? Uning qanday turlari bor?

3. "O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat!" gapidagi segment va supersegment birliklarni aniqlang.

21-variant

1. Nutq tovushlarining biologik asosini qanday tushunasiz? Bu asos qanday maqsadda o'rganiladi?

2. Fonologik va fonetik cho'ziqliklar nimasi bilan farqlanadi?

3. *Ko'l* va *qo'l* so'zlaridagi unli fonemalarni tavsiflang.

22-variant

1. Fonetikaning anatomik-fiziologik aspektida nimalar o'rganiladi?
2. Urg'u, uning tiplari va turlari? Qanday hollarda urg'u aksentema sanaladi?
3. *Qil – qul – kul* so'zlaridagi fonemalarni, fonema ottenkalarini aniqlang.

23-variant

1. Tovushning sifat va miqdor belgilariga nimalar kiradi?
2. So'z urg'usining fonetik tabiatiga nimalar kiradi? Bu belgilariga ko'ra so'z urg'usining qanday turlari farqlanadi?
3. **Traktor, shkaf, konstitutsiya** so'zlarining qanday fonetik belgilari ularning boshqa tillardan o'zlashtirilganligini ko'rsatadi?

24-variant

1. O'zbek tili konsonantizmida korrelatsiyaning qanday turlari bor?
2. Intonatsiya, uning prosodik elementlari (uzvlari) va turlari?
3. **Til va dil** so'zlari boshidagi undoshlar qaysi oppozitsiyaga mansub?

25-variant

1. Fonema ottenkalari va fonema qatori nima? Fonemalarning majburiy ottenkalari, individual ottenkalari va fakultativ ottenkalari qanday farqlanadi?
2. Bo'g'inning til va nutqdagi ahamiyati?
3. *Savod* va *kitab* so'zlari oxiridagi undosh fonemalar o'zlarining qaysi variantlarida reallashgan?

26-variant

1. O'zbek tili vokalizmida korrelatsiyaning qanday turlari bor?
2. Sintagma va ayiruv urg'ulari, ularning asosiy belgilari va turlari?
3. *Ot – os – osh* so'zlarining ma'nolari qaysi fonemalarning qanday belgilari hisobiga farqlanmoqda?

27-variant

1. Fonema pozitsiyasi nima? Uning qanday turlari bor? Fonema, pozitsiya va oppozitsiya tushunchalarining fonologik sistemadagi o'rnini nimadan iborat?
2. Transkripsiya nima? Uning qanday turlari bor?
3. *Til* va *tish* so'zlarining ma'nolari qaysi fonemalarning qanday belgilari hisobiga farqlanadi?

28-variant

1. Vokalizm nima? O'zbek adabiy tili vokalizmi qaysi fonemalarni o'z ichiga oladi?
2. Sillabema va sillabika nima?
3. *Xol* va *hol* so'zlarining ma'nolari qaysi fonemalarning qanday belgilari hisobiga farqlanadi?

29-variant

1. Artikulyatsiya o'rniga ko'ra undoshlar qanday turlarga ajratiladi?

2. Urg'uning til va nutqdagi ahamiyati?
3. Tish va qish so'zlaridagi "i" unlisiga xarakteristika bering.

30-variant

1. Fonema ottenkalaridan birining o'rnida boshqasi qo'llanadimi? Fonema ottenkalari tushunchasiga kim asos solgan?
2. Dissimilatsiya va uning turlari.
3. *Tush* va *qush* so'zlaridagi "u" unlisiga xarakteristika bering.

31-variant

1. O'zbek tilshunosligida hozirgi o'zbek adabiy tili vokalizmiga oid qanday masalalar munozarali bo'lib qolmoqda?
2. O'rniga ko'ra so'z urg'usining qanday turlari bor?
3. *Tosh* va *qosh* so'zlaridagi «o» unlisiga xarakteristika bering

32-variant

1. Undosh fonemalarning qaysi belgilari tasnifga asos bo'lgan?
2. Bo'g'in, uning tuzilishi va bo'g'in markazi nima?
3. *Choy* va *joy* so'zlari boshidagi fonemalar qaysi oppozitsiyaga (zidlanishga) mansubligini aniqlang.

33-variant

1. Unli fonemalar undoshlardan qanday farqlanadi? (Fizik-akustik, anatomik-fiziologik va lingvistik-funksional jihatlari asosida).
2. Intonatsiya va intonema, ularning til va nutqdagi roli? Fonetikaning intonatsiyani o'rganuvchi bo'limi qanday nomlanadi?
3. *Kuz* va *tuz* so'zlari boshidagi fonemalar qaysi oppozitsiyaga mansubligini aniqlang.

34-variant

1. Unli fonemalar tasnifi nimalarga asoslanadi? Tasnifga asos bo'lgan qaysi belgilar fonologik relevant va norelevant xarakterda?
2. Harakat qilish belgisiga ko'ra so'z urg'usining qanday turlari bor?
3. *Soch* va *qoch* so'zlaridagi "o" unlisiga xarakteristika bering.

35-variant

1. Fonematika (fonemika) va prosodika nima? Ular qanday farqlanadi?
2. Bo'g'in tiplari va turlari?
3. *Tog'* va *dog'* so'zlari boshidagi fonemalarning integral va differensial belgilarini aniqlang.

36-variant

1. Fonemalarning variatsiya va variantlari qanday farqlanadi?
2. Assimilatsiya nima? Uning qanday turlari bor?
3. *Sol* va *qol* so'zlaridagi unli fonemalarni tavsiflang.

37-variant

1. Unli fonemalarning kombinator va pozitsion ottenkalari qanday farqlanadi? Ularning har biri alohida fonema deb qaraladimi?
2. Akkomodatsiya, uning turlari va assimilatsiyadan farqlari?
3. *Kon* va *qon* soʻzlaridagi fonema va fonema ottenkalarini aniqlang.

38-variant

1. Kombinator omillar nima? Ular fonemalarning qanday ottenkalarini yuzaga keltiradi?
2. Artikulyatsiya oʻrniga koʻra undoshlar qanday turlarga ajratiladi?
3. *Qarz* va *tarz* soʻzlarining maʼnolari qaysi fonemalarning qanday belgilari asosida farqlanadi?

39-variant

1. Nutq aʼzolarining anatomiyasi, fiziologiyasi va ijro kechimlarini qanday tushunasiz?
2. Fonologik oppozitsiya (zidlanish) nima? Uning qanday turlari bor?
3. *Toy* – *soy* – *choy* soʻzlarining maʼnolari qaysi fonemalarning qanday belgialri hisobiga farqlanmoqda?

40-variant

1. Fonetikaning lingvistik-funksional aspektini qanday tushunasiz? Unda nimalar oʻrganiladi?
2. Fonema nima? Fonema nazariyasiga kim asos solgan?
3. *Gʻor* va *zor* soʻzlaridagi “o” unlisiga xarakteristika bering.

41-variant

1. Fonologiyaning predmeti?
2. Fonemalarning kombinator va pozitsion ottenkalari qanday farqlanadi? Bu belgilarning tilda qanday roli bor?
3. *Tish* va *tush* soʻzlarining maʼnolari qaysi fonemalarning qanday belgialri hisobiga farqlanmoqda?

42-variant

1. Vokalizm sistemasining shakllanishida tilning koʻtarilishi, tilning yotiq harakati va lablarning ishtiroki qanday rol oʻynaydi? Ulardan qaysilari unli fonemalarning fonologik belgilarini shakllantiradi?
2. Korrelatsiya nima? Uning yadrosini nima tashkil etadi? Korrelatsiya hodisasini dastlab kim aniqlagan?
3. *Til* va *qil* soʻzlari boshidagi fonemalarning integral va differensial belgilarini aniqlang

B. Fonetika, fonologiya, grafika, orfografiya va orfoepiya

2-oraliq nazorat variantlari:

1-variant

1. Artikulatsiya bosqichlari (ekskursiya, ish holati (to'xtami), rekursiyasi haqida ma'lumot bering.
2. O'zbek xalqi XX asrda qanday yozuvlardan foydalangan?
3. Kirill yozuvidagi е, ё, ю, я grafemalari ifoda planiga (optik-grafik tasviriga) va mazmun planiga (referentlari miqdoriga) ko'ra qanday nomlanadi?

2-variant

1. Fonologiya nimani o'rganadi? Bu sohada ishlagan o'zbek tilshunoslaridan kimlarni bilasiz?
2. Orfografiyaning grafik, shakliy-an'anaviy va semantik-uslubiy prinsiplari haqida ma'lumot bering.
3. Uch fonemali (bir bo'g'inli) ikkita so'z (kvaziomonim) toping, ulardagi fonemalarning differensial belgilarini, shu belgilar asosida yuzaga kelgan fonologik oppozitsiyani (zidlanishni) aniqlang.

3-variant

1. Eksperimental (instrumental) fonetika nimani o'rganadi? Shu sohada ishlagan o'zbek tilshunoslaridan kimlarni bilasiz?
2. Orfografiyaning tarixiy-an'anaviy va differensial prinsiplari haqida ma'lumot bering.
3. Quyidagi toponimlarning (joy nomlarining) qaysi birida imlo qoidasiga amal qilingan?

*To'y tepa, To'ytepa, To'y - tepa
Tyū mena, Tyūmena, Tyū - mena*

4-variant

1. Tafsifiy (sinxron) va tarixiy fonetika haqida ma'lumot bering. Bu sohalarda ishlagan o'zbek tilshunoslaridan kimlarni bilasiz?
2. Grafemaning ifoda planidagi referentini qanday tushunasiz? Referentlarning turiga ko'ra grafemalarning qanday tiplari o'zaro farqlanadi?
3. Qo'shma so'zlar qaysi qatorda to'g'ri yozilgan?
A. Kўз ойнак, ҳаво ранг, меҳнат севар, муз ёрап
Ko'z оунак, ҳаво ранг, меҳнат севар, муз уорар
B. Кўзойнак, ҳаво ранг, меҳнатсевар, муз ёрап
Ko'zoynak, havorang, mehnatsevar, muzyorap
D. Кўз-ойнак, ҳаво-ранг, меҳнат-севар, муз-ёрап
Ko'z-оунак, ҳаво-ранг, меҳнат-севар, муз-уорар
E. Кўзойнак, ҳаворанг, меҳнатсевар, музёрап

Ko'z oynak, havo rang, mehnat sevar, muz yorar

5-variant

1. Qiyosiy fonetika nimani o'rganadi? Bu sohada ishlagan va ishlayotgan o'zbek tilshunoslaridan kimlarni bilasiz?

2. Orfografiyaning fonetik, fonematik va morfologik prinsiplari qanday farqlanadi?

3. Eng so'zining fonetik va grafemik tarkiblarini, grafemalarning ifoda va mazmun planlariga ko'ra turlarini aniqlang.

6-variant

1. Xususiy fonetika nimani o'rganadi?

2. Grafemalarning ifoda planini qanday tushunasiz? Ifoda planiga ko'ra grafemalarning qanday tiplari bor?

3. Qaysi qatorda ot va fe'llar imlosiga to'g'ri amal qilingan?

A) шовил, шовилламоқ, shovil, shovillamoq

B) шовул, шовулламоқ, shovul, shovullamoq

D) шовил, шовулламоқ, shovil, shovullamoq

E) шовул, шовилламоқ, shovul, shovullamoq

7-variant

1. Umumiy fonetika nimani o'rganadi?

2. "Grafema" va "fonema" terminlarini tilshunoslikka kim kiritgan? Ular qanday farqlanadi?

3. Anglamoq va sanamoq so'zlarining yozilishi (imlosi) orfografiyaning qaysi prinsipiga asoslangan?

8-variant

1. Nima uchun grafema bilateral hodisa sanaladi?

2. Tilning segment va supersegment fonetik birliklari qanday farqlanadi?

3. Ekkan va ketgan sifatdoshlarining imlosi orfografiyaning qaysi prinsipiga asoslangan?

9-variant

1. Fonetik so'z nima? Uning til va nutqdagi ahamiyati.

2. Yozuv tizimi qanday komponentlardan tashkil topgan?

3. Qaysi qatorda o'zbek tili sonantlari to'g'ri ko'rsatilgan? (toping va tushuntiring).

A) l, m, z, d, b, v

B) n, g, g', ng, j, m

D) l, r, y, m, n, ng

E) r, n, g, g', y, b

10-variant

1. Intonatsiya, uning turlari va prosodik elementlari. Intonatsiyaning gap qurilishidagi roli.
2. Orfografiyaning morfologik va simvolik (differenziatsiya) prinsiplari .
3. *Bir-ber-bar* so'zlaridagi unlilar qaysi belgilari asosida oppozitsiya hosil qiladi?

11-variant

1. Aksentuatsiya (urg' ular tizimi): urg' u turlari, ularning til va nutqdagi roli.
2. Orfografiyaning tarixiy-an'anaviy prinsipi haqida ma'lumot bering.
3. *Bo'r-bur-bor* so'zlaridagi unlilar qaysi belgilari asosida oppozitsiya hosil qiladi?

12-variant

1. Bo'g'in, uning tiplari, tildagi ahamiyati. Bo'g'in markazi nima?
2. Boshqa tillardan o'zlashtirilgan ayrim so'zlar orfoepiyasi.
3. *Tor* va *kor* so'zlari boshidagi fonemalar qaysi oppozitsiyaga (zidlanishga) mansubligini aniqlang.

13-variant

1. Singarmonizm, uning turlari.
2. *Men, sen* olmoshlari tushum va qaratqich kelishiklarida turlanganda qanday fonetik hodisa sodir bo'ladi? Bu hodisaning nomi?
3. Qaysi qatorda lotincha o'zbek yozuvi imlo qoidalariga amal qilingan?
A) Mustaqillik Kuni B) Mustaqillik kuni
D) mustaqillik kuni E) A va B

14-variant

1. Spirantizatsiya.
2. So'z qismlari talaffuzi: *ong + la, son + a, oq + gan* so'z shakllarining to'g'ri talaffuzini aniqlang?
3. Qaysi qatorda kirilcha va lotincha o'zbek yozuvlarining imlo qoidalariga amal qilingan?
A) тоққа, тоққа
B) тоғға, тоғ'га
D) тоғға, тоққа
E) тоққа, тоғ'га

15-variant

1. Metateza, uning turlari haqida ma'lumot bering.
2. Ayrim tovushlar orfoepiyasi (b, d undoshlari talaffuzi)
3. Qaysi qatorda kirilcha va lotincha o'zbek yozuvi imlo qoidalariga amal qilingan?
A) 2000-йил , 2000-йил
B) 2000 йил ,2000 йил

- D) 2000 йил, 2000-yil
E) 2000-йил ,2000 yil

16-variant

1. Dissimilatsiya, uning turlari.
2. Ayrim tovushlar orfoepiyasi (*o', a, o* unilari talaffuzi)
3. Qaysi qatorda kirilcha va lotincha o'zbek yozuvlari imlo qoidalariga amal qilingan?

- A) увулламок, uvullamoq
B) увилламок, uvillamoq
D) увилламок, uvullamoq
E) A va D

17-variant

1. Tovush ortirilishi va uning turlari.
2. Ayrim tovushlar orfoepiyasi (*i, u* unilari talaffuzi)
3. Qaysi so'zlar to'g'ri yozilgan?

- A) кувир, quvir B) кувур, quvur
D) кувир, quvur E) A va D

18-variant

1. Tovush tushishi va uning turlari.
 2. Orfoepiya, uning til va jamiyat munosabatlaridagi o'rni.
 3. Qaysi so'zlar to'g'ri yozilgan?
- A) бугдой ранг, кеча-ю кундуз, bug'doy rang, kecha-yu kunduz
B) бугдойранг, кечаю кундуз,bug'doyrang, kecha-yu kunduz
D) бугдой ранг, кечаю кундуз , bug'doyrang, kecha-yu kunduz,
E) A va B

19-variant

1. Fonemalarning kombinator va pozitsion ottenkalari haqida ma'lumot bering.
2. Qanday belgilar noharfiy belgilar sanaladi?
3. *Bor* va *dor* so'zlari boshidagi fonemalar qaysi oppozitsiyaga (zidlanishga) mansubligini aniqlang.

20-variant

1. Fonemalar adaptatsiyasi (moslashuvi) va uning turlari
2. Lotincha o'zbek yozuvining imlo qoidalari qachon qabul qilingan? U necha bo'limdan iborat (bo'limlarning nomlanishi, mazmuni...)?
3. *Kitob*, *kanop* so'zlarida qanday fonetik-fonologik hodisa sodir bo'lgan? (hodisaning nomi...)

21-variant

1. Undosh tovushlarning fokuslari. Bir fokusli va ikki fokusli undoshlar.
2. Grafika va orfografiya qanday farqlanadi?

3. Yangi soʻzining grafemalarini aniqlang.

22-variant

1. Undosh tovushlar tasnifi.

2. Kirilcha oʻzbek yozuvining imlo qoidalari qachon qabul qilingan? U necha boʻlimdan iborat (boʻlimlarning nomlanishi, mazmuni...)

3. Qaysi qatorda soʻzlar toʻgʻri yozilgan?

- A) музёpap, muzyorar
- B) муз ёpap, muz yorar
- D) муз-ёpap, muz-yorar
- E) муз ёpap, muzyorar

23-variant

1. Hozirgi oʻzbek adabiy tili konsonantizmi, bu tizimga oid munozarali masalalar haqida maʼlumot bering.

2. Yangi (lotincha) oʻzbek alifbosi qachon qabul qilingan? Uning ikkinchi varianti-chi?

3. *Мўътадил, мўл, тўғри* soʻzlarini lotincha oʻzbek yozuvida yozing, tutuq belgisining shu soʻzlardan qaysilarida qoʻllanganini tushuntiring.

24-variant

1. Hozirgi oʻzbek adabiy tili vokalizmi. Unlilar tasnifi, bundagi munozarali masalalar.

2. Kirilcha oʻzbek alifbosi qachon qabul qilingan? Unda nechta harf bor?

3. *Tor* va *dor* soʻzlari boshidagi fonemalar qaysi oppozitsiyaga (zidlanishga) mansubligini, ularning integral va differensial belgilarini aniqlang.

25-variant

1. Fonema ottenkalaridan birining oʻrnida boshqasi qoʻllanadimi? Fonema ottenkalari tushunchasiga kim asos solgan?

2. Transkripsiya haqida maʼlumot bering.

3. Quyidagi gapni lotincha oʻzbek yozuvida koʻchiring. Imloga eʼtibor bering

Эртага тоққа чиқамиз.

26-variant

1. Raqamlar grafemalarning qaysi turiga kiradi?

2. Fonemalarning integral va differensial belgilari haqida maʼlumot bering.

3. Quyidagi gapning qurilishida ishtirok etgan segment va supersegment birliklarni aniqlang.

Xalqimizning yoʻli mustaqillik, ozodlik va tub islohotlar yoʻlidir.

27-variant

1. Fonetikaning obyekti va maqsadi.

2. Prosodemografemalar haqida ma'lumot bering.
3. *Qo'l* va *ko'l* so'zlaridagi unli fonemani tavsiflang.

28-variant

1. Fonetik birliklarning til qurilishidagi vazifalari.
2. Orfografiyaning fonetik va fonematik prinsiplari qanday farqlanadi?
3. Quyidagi nutqiy parchadan segment va supersegment birliklarni aniqlang.
O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat. (I. A. Karimov)

29-variant

1. Adabiy tilning yashash formalari (og'zaki va yozma shakllari) haqida ma'lumot bering.
2. Grafema nima va uning qanday turlari bor?
3. *Kir* va *qir* so'zlaridagi unli fonemaga xarakteristika bering.

30-variant

1. Korrelatsiya nima? Uning fonologik sistemadagi o'rni. Abu Ali ibn Sinoning fonologik korrelatsiyaga oid fikrlari.
2. Adabiy til va shevalar o'rtasidagi munosabat.
3. Qaysi qatorda kirillcha va lotincha o'zbek yozuvi imlo qoidalariga amal qilingan?

- | | |
|---------------|-----------------|
| A) кўпдан кўп | D) ko'pdan ko'p |
| B) кўпдан-кўп | E) ko'pdan ko'p |

31-variant

1. Grafika va orfografiya qanday farqlanadi?
2. Fonologik zidlanishlar (opozitsiyalar) haqida ma'lumot bering.
3. Quyidagi parchadan adabiy til meyorlariga xilof bo'lgan birliklarni aniqlang.

Iybi, iybi, - dedi Rahim, - burodaring ahvolini gapur-da, axe. Barpadari uyquki peshinga chikin bo'lsa, ko'chaga bo'lib yotgan to'palangni go'shinga ilasanmi?

32-variant

1. Hozirgi o'zbek adabiy tilining tarixiy ildizlari haqida ma'lumot bering.
2. Fonetikaning tekshirish uslubi va maqsadiga ko'ra turlari.
3. Qaysi qatorlarda so'zlar to'g'ri yozilgan?

- A) йилдан йилга
- B) yildan yilga
- D) йилдан-йилга
- E) yildan-yilga

33-variant

1. Adabiy til meyorlari haqida (fonetik tizim va grammatik qurilish bo'yicha) ma'lumot bering.

2. Leksikografiya: lug'at tiplari.

3. *Lola, bola, ro'za, mutolaa, ota, ko'z* so'zlaridan qaysilari umumturkiy qatlamga kirmaydi? Sababi?

3-variant

1. Leksikologiyaning qanday turlari bor?

2. Frazema nima? Leksema va frazema o'rtasidagi umumiy va xususiy (farqli) jihatlar haqida ma'lumot bering.

3. Quyidagi gaplardan sinonimlarni toping, ularning qanday sinonimligini va sinonim bo'lish sabablarini tushuntiring.

Shu gaplarni aytib Shojalil uzoq jim qoldi.

Oqila ham sukut saqladi (Y. Shomansur).

4-variant

1. Leksikologiya tilshunoslikning qaysi bo'limlari bilan aloqada bo'ladi? Sabablari?

2. Ensiklopedik (qomusiy) va lingvistik (lisoniy) lug'atlar qanday farqlanadi?

3. Quyidagi gaplarda qo'llangan quloq so'zining semantik tarkibini aniqlang, undagi ma'no taraqqiyotini tushuntiring.

a) *Quloq - eshitish a'zosi.*

b) *U dutorning qulog'ini buradi.*

5-variant

1. Nima uchun so'z nominativ birlik sanaladi? Leksik so'zlar va grammatik so'zlar qanday farqlanadi?

2. Frazemaning ifoda planini qanday tushunasiz?

3. Quyidagi parchadan dialektizmlarni topib, ularning turlarini va shu matn mazmunini ifodalashdagi rolini tushuntiring.

- Iybi, iybi, - dedi Rahim, - burodaring ahvolini gapur-da, axe. Barpadari uyquki peshinga chikin bo'lsa, ko'chaga bo'lib yotgan to'palangni go'shinga ilasanmi?

6-variant

1. Leksema, nomema, semema atamalarini tushuntiring.

2. Leksemalarning mazmun doirasiga nimalar kiradi?

3. Gapdagi frazemani toping, so'ng u qaysi so'z yoki frazema bilan Antonimik juftlik hosil qilishi mumkinligini aniqlang:

Bunaqa, o'z qadringni o'zing yerga urmasdan, bilib gapirgin, ha! (o. Yoqubov)

7-variant

1. Leksemaning ifoda va mazmun planlari (shakl va mazmun tomonlari) haqida ma'lumot bering.

2. Frazeologik ma'no nima? U leksik ma'nodan qanday farqlanadi?

3. Gapdagi frazemani toping, uning ifoda va mazmun planlarini aniqlang.

Ikkinchi bunaqa qilmang. Indamasa haddingizdan oshib ketayotibsiz-a? (S.Ahmad)

8-variant

1. Tub va yasama soʻzlarning ifoda planlari qanday farqlanadi?
2. Oʻzbek tilida ensiklopedik lugʻatlar bormi? (Nomlari, turlari....)
3. Tong va yon soʻzlarining ifoda va mazmun planlarini aniqlang.

9-variant

1. Leksemaning tashqi va ichki formalari, ular oʻrtasidagi aloqalar haqida maʼlumot bering.
2. Frazemalar erkin birikmalardan va toʻgʻri maʼnoli turgʻun birikmalardan qanday farqlanadi?
3. Chegara va bugun soʻzlarining etimonini aniqlang.

10-variant

1. Leksemaning ifoda va mazmun planlari oʻrtasidagi aloqa dialektikaning qaysi kategoriyalari mohiyatiga mos boʻlishini tushuntiring.
2. Umumiy va xususiy (maxsus) lugʻatlar qanday farqlanadi?
3. Raʼno, taʼna, jurʼat, oila soʻzlari qaysi qatlamga (umumturkiy, oʻzbekcha, tojikcha yoki arabcha soʻzlar guruhiga) mansub?

11-variant

1. Leksemaning leksik birlik sifatidagi asosiy belgilarini tushuntiring.
2. Frazemaning mazmun plani haqida maʼlumot bering.
3. Chegara va bugun soʻzlarining etimonini aniqlang.

12-variant

1. Leksemaning semantik tarkibiga nimalar kiradi?
2. Lugʻatlarda maqola nomlari qanday tartibda joylashtiriladi?
3. Quyidagi gapdan terminlarni toping, ularning qaysi qatlamga (umumturkiy, oʻzbekcha, tojikcha yoki arabcha soʻzlar guruhiga) mansubligini tushuntiring.

Gʻoʻzani oʻz vaqtida kultivatsiya va chekanka qilish moʻl hosil garovidir.

13-variant

1. Leksik maʼno nima? U tushunchadan qanday farqlanadi?
2. Frazemaning semantik tarkibi haqida maʼlumot bering.
3. Gapdagi frazemani toping, uning strukturasi, semantik turini va gapdagi vazifasini aniqlang.

Hatto shundoq deb uyidagilarning ham koʻziga choʻp solib yurgan (H. Nazir).

14-variant

1. Fonetik soʻz, denotat, referent, signifikat haqida maʼlumot.
2. "Devonu lugʻotit turk" — kimning asari? Mazkur lugʻat qaysi tilda yozilgan, qaysi tillarga tarjima qilingan, qachon?

2. Leksikografiya: lug'at tiplari.

3. *Lola, bola, ro'za, mutolaa, oia, ko'z* so'zlaridan qaysilari umumturkiy qatlamga kirmaydi? Sababi?

3-variant

1. Leksikologiyaning qanday turlari bor?

2. Frazema nima? Leksema va frazema o'rtasidagi umumiy va xususiy (farqli) jihatlar haqida ma'lumot bering.

3. Quyidagi gaplardan sinonimlarni toping, ularning qanday sinonimligini va sinonim bo'lish sabablarini tushuntiring.

Shu gaplarni aytib Shojalil uzoq jim qoldi.

Oqila ham sukut saqladi (Y. Shomansur).

4-variant

1. Leksikologiya tilshunoslikning qaysi bo'limlari bilan aloqada bo'ladi? Sabablari?

2. Ensiklopedik (qomusiy) va lingvistik (lisoniy) lug'atlar qanday farqlanadi?

3. Quyidagi gaplarda qo'llangan quloq so'zining semantik tarkibini aniqlang, undagi ma'no taraqqiyotini tushuntiring.

a) *Quloq* – *eshitish a'zosi*.

b) *U dutorning qulog'ini buradi*.

5-variant

1. Nima uchun so'z nominativ birlik sanaladi? Leksik so'zlar va grammatik so'zlar qanday farqlanadi?

2. Frazemaning ifoda planini qanday tushunasiz?

3. Quyidagi parchadan dialektizmlarni topib, ularning turlarini va shu matn mazmunini ifodalashdagi rolini tushuntiring.

- Iybi, iybi, - dedi Rahim, - burodaring ahvolini gapur-da, axe. Barpadari uyquki peshinga chikin bo'lsa, ko'chaga bo'lib yotgan to'palangni go'shinga ilasanmi?

6-variant

1. Leksema, nomema, semema atamalarini tushuntiring.

2. Leksemalarning mazmun doirasiga nimalar kiradi?

3. Gapdagi frazemani toping, so'ng u qaysi so'z yoki frazema bilan Antonimik juftlik hosil qilishi mumkinligini aniqlang:

Bunaqa, o'z qadringni o'zing yerga urmasdan, bilib gapirgin, ha! (o. Yoqubov)

7-variant

1. Leksemaning ifoda va mazmun planlari (shakl va mazmun tomonlari) haqida ma'lumot bering.

2. Frazeologik ma'no nima? U leksik ma'nodan qanday farqlanadi?

3. Gapdagi frazemani toping, uning ifoda va mazmun planlarini aniqlang.

Ikkinchi bunaqa qilmang. Indamasa haddingizdan oshib ketayotibsiz-a? (S.Ahmad)

8-variant

1. Tub va yasama soʻzlarning ifoda planlari qanday farqlanadi?
2. Oʻzbek tilida ensiklopedik lugʻatlar bormi? (Nomlari, turlari....)
3. Tong va yon soʻzlarining ifoda va mazmun planlarini aniqlang.

9-variant

1. Leksemaning tashqi va ichki formalari, ular oʻrtasidagi aloqalar haqida maʼlumot bering.
2. Frazemalar erkin birikmalardan va toʻgʻri maʼnoli turgʻun birikmalardan qanday farqlanadi?
3. Chegara va bugun soʻzlarining etimonini aniqlang.

10-variant

1. Leksemaning ifoda va mazmun planlari oʻrtasidagi aloqa dialektikaning qaysi kategoriyalari mohiyatiga mos boʻlishini tushuntiring.
2. Umumiy va xususiy (maxsus) lugʻatlar qanday farqlanadi?
3. Raʼno, taʼna, jurʼat, oila soʻzlari qaysi qatlamga (umumturkiy, oʻzbekcha, tojikcha yoki arabcha soʻzlar guruhiga) mansub?

11-variant

1. Leksemaning leksik birlik sifatidagi asosiy belgilarini tushuntiring.
2. Frazemaning mazmun plani haqida maʼlumot bering.
3. Chegara va bugun soʻzlarining etimonini aniqlang.

12-variant

1. Leksemaning semantik tarkibiga nimalar kiradi?
2. Lugʻatlarda maqola nomlari qanday tartibda joylashtiriladi?
3. Quyidagi gapdan terminlarni toping, ularning qaysi qatlamga (umumturkiy, oʻzbekcha, tojikcha yoki arabcha soʻzlar guruhiga) mansubligini tushuntiring.

Gʻoʻzani oʻz vaqtida kultivatsiya va chekanka qilish moʻl hosil garovidir.

13-variant

1. Leksik maʼno nima? U tushunchadan qanday farqlanadi?
2. Frazemaning semantik tarkibi haqida maʼlumot bering.
3. Gapdagi frazemani toping, uning strukturasi, semantik turini va gapdagi vazifasini aniqlang.

Hatto shundoq deb uyidagilarning ham koʻziga choʻp solib yurgan (H. Nazir).

14-variant

1. Fonetik soʻz, denotat, referent, signifikat haqida maʼlumot.
2. "Devonu lugʻotit turk" — kimning asari? Mazkur lugʻat qaysi tilda yozilgan, qaysi tillarga tarjima qilingan, qachon?

3. *Traktor, shkaf, konstitutsiya* so'zlarining qanday fonetik belgilari ularning boshqa tillardan o'zlashtirilganligini ko'rsatadi?

15-variant

1. Leksik ma'no bilan so'z (nom) o'rtasidagi bog'lanishni qanday tushunasiz?

2. Frazeologik monosemiya va polisemiya hodisalari qanday farqlanadi?

3. Quyidagi parchadan dialektizmlarni topib, ularning turlarini aniqlang

Uxlasangiz- chi! Muncha shoshasiz, achangizning palovi qirmoch olib ketdimi?
(Shuhrat)

16-variant

1. Sema va semema haqida ma'lumot bering.

2. XI-XIII asrlarda yozilgan qanday lug'atlarni bilasiz? Bunday lug'atlarning turkiy tillarga qanday aloqasi bor?

3. *Ko'z* so'zining semema va semalarini aniqlang.

17-variant

1. Semalar ma'no xususiyatlariga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?

2. Frazemalarning qanday semantik turlari bor?

3. Quyidagi gapdan dialektizmlarni topib, uning tuzulish xususiyati va frazeologik ma'nosini aniqlang.

Muqaddas mening o'zimni ham, sevgimni ham tark etib ko'zimni ochgan edi (O. Yoqubov)

18-variant

1. Atash (denotativ) semalari nima? Ifoda va ideografik semalari-chi?

2. O'zbek lug'atchiligi tarixining chig'roy tili davrida qanday lug'atlar yaratilgan? Bu lug'atlarning tuzilishi, leksik va grammatik material haqida nimalarni bilasiz?

3. Gapdagi frazemaning sinonimini aniqlang.

Ammo bu tashkilotlar biror vazifa topshirsa, hech adi-badiga bormas, ko'ngliga yoqmasa ham, bajarar edi. (S. Anorboyev)

19-variant

1. Ideografik semalar, ularning integral va differensial semalarga bo'linishini tushuntiring.

2. Frazeologik butunlik bilan frazeologik chatishma qanday farqlanadi?

3. Quyida keltirilgan bosh leksemasining semema va semalarini aniqlang.

a) odamning boshi;

b) ko'chaning boshi.

20-variant

1. Termin nima? Uning ifoda va mazmun planlaridagi o'ziga xoslik nimalarda ko'rinadi?

2.XIX asrning ikkinchi yarmida O'zbekistonda lug'atchilik.

3. Gapdagi frazemani toping, uning variatsiyasini aniqlang.

Ana shunday, qarabsizki, bizni osmonga ko'tarib maqtaydilar...

(M. Muhamedov)

21-variant

1. Leksemaning uzual va okkazional ma'nolari qanday farqlanadi? Ulardan qaysi biri til birligi sanaladi?

2. Frazemalarning uslubiy xususiyatlari haqida ma'lumot bering.

3. Gapdagi burun so'zining semantik tarkibini aniqlang, undagi ma'no taraqqiyotini tushuntiring.

a) odamning burni;

b) choynakning burni.

22-variant

1. Okkazional ma'nolar qanday yuzaga keladi? Ular uzual ma'noga aylanishi mumkinmi?

2. XX asrning birinchi yarmida O'zbekistonda lug'atchilik.

3. "Bel" so'zining to'g'ri va ko'chgan ma'nolariga asoslanib, ikkita gap tuzing, ma'noning qanday ko'chganligini aniqlang.

23-variant

1. Leksik monosemiyani qanday tushunasiz? Leksik polisemiyaning chi?

2. Frazemaning shakl munosabatiga ko'ra guruhlanishini tushuntiring.

3. O'simlik, gul, lola so'zlari qanday ma'no munosabatini tashkil etadi?

24-variant

1. Monosemiya hodisasi qanday lug'aviy birliklarga ega?

2. XX asrning ikkinchi yarmida O'zbekistonda lug'atchilik.

3. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning umumturkiy qatlamga mansubligi yoki mansub emasligini qanday aniqlash mumkin?

Faktlarni yuzaki tahlil qilmaslik kerak.

25-variant

1. Polisemiyaning yuzaga kelishi qanday sodir bo'ladi?

2. Frazeologik omonimiya va frazeologik paronimiya qanday farqlanadi?

3. Jilmaydi, tirjaydi leksemalarining semantik tarkibini aniqlang.

26-variant

1. Ko'p ma'nolilikka (polisemiya) olib keluvchi lisoniy va nolisoniy omillar haqida ma'lumot bering.

2. Lug'at maqolalari sxemalarini qanday tushunasiz? Bunday sxemalarning amaliy ahamiyati nimada?

3. Quyida ajratib ko'rsatilgan so'zlar shakl va ma'no munosabatiga ko'ra qanday leksik guruhni tashkil qiladi?

a) uyning to'ri:

b) baliqchining to'ri

27-variant

1. Ma'no taraqqiyotining qanday ko'rinishlari bor?
2. Adabiy va so'zlashuv nutqlari qanday farqlanadi? Qanday so'zlar umumturkiy qatlam so'zlari sanaladi?
3. Tana, qo'l, barmoq so'zlari o'zaro qanday ma'no munosabatini tashkil qiladi?

28-variant

1. Metafora yo'li bilan ma'noning ko'chirilishi qanday tushunasiz?
2. Qanday so'zlar nutqning ma'lum turiga xoslangan sanaladi?
3. Yuz va bashara so'zlarining semantik tarkibini aniqlang

29-variant

1. Vazifadagi o'xshashlik asosida ma'noning ko'chirilishi?
2. Rasmiy va badiiy nutqlarda qo'llanishga xoslangan so'zlar qanday farqlanadi?
3. Gapdagi frazemani toping, uning frazeologik ma'nosini aniqlang.
Murod mirzo bosh egib, ta'zim bajo keltirdi (Sh. Toshmatov).

30-variant

1. Metonimiya yo'li bilan ma'noning ko'chirilishi
2. So'zlashuv nutqi, uning ko'rinishlari. So'zlashuv nutqiga xoslangan so'zlar, ularning ma'no xususiyatlari
3. Choynak, qopqoq so'zlarining semantik tarkibini aniqlang, ularning o'zaro qanday ma'no munosabatida bo'linishini tushuntiring

31-variant

1. Sinekdoxa yo'li bilan ma'noning ko'chirilishi. Sinekdoxa va metonimiyaga asoslangan ma'no ko'chirilishlarining farqli jihatlari?
2. Badiiy nutq va badiiy asar tili qanday farqlanadi?
3. Frazeologik antonimiyaga misol keltiring, ularning ifoda va mazmun planlarini tushuntiring.

32-variant

1. Leksik ma'no taraqqiyoti natijalari: miqdor va hajm o'zgarishlari, ularning farqi?
2. Nutqning u yoki bu turiga xos bo'lgan fonetik va grammatik belgi-xususiyatlar haqida gapiring.
3. Katta, o'rta, kichik so'zlarida qanday ma'no munosabati bor?

33-variant

1. Leksik ma'no tiplari: hozirgi va avvalgi leksik ma'nolar qanday farqlanadi?
2. Frazeologik sinonimiya va frazeologik variatsiyaning farqlarini tushuntiring.

3. Quyidagi maqolda ajratib ko'rsatilgan so'zning umumturkiy qatlamga mansubligi yoki mansub emasligini aniqlang, sababini tushuntiring.

Vaqting ketdi – baxting ketdi.

34-variant

1. Bosh ma'no nima? Hosila ma'no-chi?
2. Frazeologik antonimlar haqida ma'lumot bering.
3. Oshig'i olchi, ishi o'ngidan kelmaslik frazemalarining shakl va mazmun munosabatiga ko'ra turini aniqlang, ularning semantik tarkibini tushuntiring

35-variant

1. To'ng'ich bosh ma'no va nisbiy bosh ma'no haqida ma'lumot bering.
2. O'zbek tili frazemalari tarixan qanday qatlamlarga ajratiladi?
3. Quyidagi misralardan antonimlarni toping, ularning turini aniqlang.

Ushoq qand oq tuzga monand erur,

Va lekin biri tuz, biri qand erur (A. Navoiy)

36-variant

1. Avvalgi leksik ma'nolarning qanday turlari bor?
2. O'z va o'zlashgan frazemalar haqida ma'lumot bering.
3. Achchiqlanmog, g'azablanmog, qahrlanmog leksemalarining semema va semalarini aniqlang

37-variant

1. Etimon nima? Uning qanday turlari bor?
2. Boshqa tillardan frazemalar o'zlashtiriladimi? Bunday o'zlashtirish bor bo'lsa, u qanday usullarda amalga oshiriladi?
3. Quyidagi tuyuqda ajratib ko'rsatilgan so'zlarning shakl va ma'no munosabatlarini aniqlang.

Har qancha bilsang-da o'qi erta-kech,

Bilim tog'ini osh, daryosini kech,

Qurug' savlatingga mahliyo bo'lma,

Mehnat-mashaqqatsiz xalovatdan kech.

38-variant

1. Leksik sinonimiya, uning so'z turkumlariga munosabati. Sinonimik qator va dominanta haqida ma'lumot
2. Ishlatilish doirasi chegaralangan va chegaralanmagan frazemalar qanday farqlanadi?
3. Ajratib ko'rsatilgan so'zlar qanday ma'no guruhini tashkil etadi?

Bir parcha o't bo'lib kun

Paxtasini ishlaydi har kun.

39-variant

1. Ma'no sinonimlari, uslubiy sinonimlar, nutqiy sinonimlar va kontekstual sinonimlar qanday farqlanadi?
2. Frazemalarning yuzaga kelishida ekstralingvistik omillarning ta'siri bormi?
3. Uy, xona so'zlarining semantik tarkibini aniqlang, ular o'zaro qanday ma'no guruhini tashkil qiladi?

40-variant

1. Absolut (mutlaq) sinonimlar va leksik dubletlar haqida ma'lumot bering.
2. Istorizm-frazemalar, arxaizm-frazemalar va neologizm-frazemalar qanday farqlanadi?
3. Lab va qosh so'zlarining semema va semalarini aniqlang.

41-variant

1. Qanday holatlarda leksemalar sinonimik munosabatda bo'lmaydi?
2. Uslubiy bo'yoqdorlik jihatdan so'zlar qanday qatlamlarga ajraladi?
3. Og'a, ini, oila, kitob, maktub so'zlarining o'z yoki o'zlashgan qatlamga mansubligini aniqlang, bu so'zlarning u yoki bu qatlamga mansubligini asoslovchi belgilarini ko'rsating.

42-variant

1. Sinonimiya va polisemiya o'rtasida qanday bog'lanish bor? Sinonimlarning uslubiy vosita sifatidagi rolini tushuntiring.
2. Tilning lug'at boyligidagi eskirish va yangilanish jarayonlari qanday omillar ta'sirida yuz beradi? Istorizm, arxaizm va neologizmlar haqida ma'lumot bering.
3. *Yetti uxlab tushiga kirmaslik, yetti uxlab tushida ham ko'rmaslik* frazemalarining semantik tarkibini, shakl va mazmun munosabatiga ko'ra qanday guruhga mansubligini aniqlang.

43-variant

1. Antonimiya va antonimik juftlik. Antonimiya hodisasining so'z turkumlariga munosabati. Kontekstual antonimiya.
2. Individual nutq neologizmi va umumtil neologizmi qanday farqlanadi?
3. Gapdagi antonimlarni toping, ularning turini aniqlang.

Yozgi mehnat – qishki rohat

44-variant

1. Qanday holatlarda antonimiya hodisasi yuz bermaydi? Antonimiya va enantiosemiya o'rtasidagi farqlarni tushuntiring.
2. Nutqda ekspressivlikning ifodalanishi qanday usullarga asoslanadi?
3. Gaplardagi sinonimlarni toping, ularning turlarini aniqlang.
 - 1) *Bunda Botirning achchig'i keldi...*(S.N)
 - 2) *Keyingi nasihatomuz gapi qonini qaynatib yubordi* (S. A).

45-variant

1. Antonimiya hodisasi bilan bog'liq qanday munozarali masalalarni bilasiz? Antonimiya hodisasining mezon sifatida qaraladigan *mantiqiy markaz* haqida ma'lumot.

2. Lug'at boyligidagi argotizm, jargonizm va neologizmlar, ularning uslubiy vosita sifatida qo'llanishi haqida ma'lumot bering.

3. *Daraxt, archa* so'zlarining semantik tarkibini aniqlang, ular qanday ma'no guruhini tashkil qilganini ayting.

46-variant

1. Antonimlardan qanday uslubiy vosita sifatida foydalaniladi?

2. Leksemalarning ishlatilish doirasi haqida ma'lumot bering.

3. Leksik arxaizmlarga misol keltiring, ularning turlarini aniqlang

47-variant

1. Leksik omonimiya va ularning turlari. Omonimiya va polisemiya o'rtasidagi farqlar.

2. Dialektizmlar, ularning turlari va uslubiy vosita sifatidagi qo'llanishi

3. *Til* so'zining semema va semalarini aniqlang.

48-variant

1. Leksik omonimiyaga yondosh hodisalar. Omonimlarning uslubiy vosita sifatidagi tavsifi.

2. Kasb-hunar leksikasi haqida ma'lumot bering.

3. *Daryo* so'zining ifoda va mazmun planlarini aniqlang

49-variant

1. Paronimiya va paronomaziya haqida ma'lumot bering.

2. So'z o'zlashtirish yo'llari va usullari.

3. Quyidagi tuyuqdan omonim va omoformalarni toping.

Yoz g'animat, yerni hayda, dona soch,

Keksalik kelmay, oqarmay boshda soch,

Qushchalar bog'ingda yayrab sayrasin.

Eng go'zal qushdir chug'urchuq ila soch.

50-variant

1. Giponimiya va partonimiya haqida ma'lumot bering.

2. O'zbek tili leksikasining tarixiy taraqqiyoti: o'z qatlam so'zlari, ularning fonetik, semantik va grammatik xususiyatlari

3. Gaplardagi frazemalarni toping, ularning semantik tarkibini aniqlang.

Rizaning yuragiga qo'l solib ko'rgan Muhiddin uning javobidan xursand bo'ldi (R.F.).

Kechagi ishdan maqsadim u yerdagi xotinlarning ko'ngliga qo'l solib ko'rish edi

51-variant

1. Graduonimiya haqida ma'lumot bering.
2. O'zbek tili leksikasining tarixiy taraqqiyoti: o'zlashgan qatlam so'zlari, ularning fonetik, semantik va grammatik xususiyatlari
3. Gapdagi frazemani toping, so'ng uning o'rnida shu ma'nodagi so'zni qo'llang.

Mahkam uzun satrlarga ko'z yugurtira boshladi (P. Qodirov).

3. Test shaklidagi nazorat uchun savol va topshiriqlar

Kirish. Fonetika va fonologiya

1. "Hozirgi o'zbek tili" kursining obykti nima?
 - A) o'zbek tilining lug'at boyligi.
 - B) o'zbek tili shevalari.
 - D) o'zbek tili tarixi.
 - E) hozirgi o'zbek tili.
2. Hozirgi o'zbek tili taraqqiyoti qanday omillarga tayanadi?
 - A) lisoniy (lingvistik) va nolisoniy (ekstralingvistik) omillarga.
 - B) xalqlar o'rtasidagi ilmiy va madaniy aloqalarga.
 - D) xalqlar o'rtasidagi iqtisodiy va siyosiy aloqalarga.
 - E) til haqidagi farmon, qonun va qarorlarga.
3. Vokalizm tizimiga oid ma'lumotlar to'g'ri ko'rsatilgan qatorlarni aniqlang.

A) qadimgi turkiy tilda unli fonemalarning yo'g'onlik va ingichkalik belgilari asosida zidlanishi bo'lmagan. Hozirgi o'zbek adabiy tili vokalizmida esa zidlanishning bu turi bor.

B) hozirgi o'zbek tili vokalizmida unli fonemalar yo'g'onlik-ingichkalik (orqa qator va old qator) belgilari asosida fonologik zidlanish hosil qilmaydi. Qadimgi turkiy va eski turkiy tillarda esa bunday zidlanish bo'lgan.

D) qadimgi turkiy va eski turkiy tillarda 6 ta unli bo'lgan. Hozirgi o'zbek tilida esa unlilar miqdori 8-9 taga yetgan.

E) qadimgi turkiy va eski turkiy tillarda 7 ta unli bo'lgan. Hozirgi o'zbek tilida esa 9 ta unli bor.

4. Fonetikaning obykti nima?
 - A) talaffuz me'yorlari.
 - B) tovushning fizik tabiati.
 - D) tovushning nutqdagi ishtiroki.

E) tilning tovush tomoni, fonetik qurilishi.

5. Fonetik birliklarning til tizimidagi vazifalari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) tovushni shakllantiradi va tovushning turlarini belgilaydi.

B) bo'g'inni shakllantiradi va bo'g'in ma'nosini anglab olish imkonini beradi.

D) so'z va morfemalarning fonetik qiyofasini shakllantiradi, ularning ma'nosi va mazmunini "tanib olish" va "eslab qolish" uchun xizmat qiladi.

E) A va B.

6. O'zbek tilshunosligida tarixiy fonetika bo'yicha ishlagan va ishlayotgan tilshunoslar qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) F.Abdullaev, G'.Abdurahmonov, A.Rustamov, Q.Mahmudov, Ǝ. Umarov.

B) N.Mahmudov, A.Mahmudov, X.Abdurahmonov, O.Azizov.

D) Sh.Shukurov, E.Fozilov, S.Ashirboev, H.Ne'matov, B. To'ychiboev.

E) A va D.

7. Fonetikaning tekshirish uslubi va maqsadiga ko'ra turlari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni aniqlang.

A) umumiy fonetika.

B) xususiy fonetika.

D) qiyosiy fonetika.

E) barcha javoblar to'g'ri.

8. Qiyosiy fonetika nimani tadqiq qiladi?

A) muayyan bir tilning nutq tovushlarini o'zaro qiyoslab, ulardagi umumiy va farqli belgilarni aniqlaydi.

B) qardosh va noqardosh tillarning fonetik tizimlaridagi umumiy (farqlanmaydigan) va xususiy (farqlanadigan) xususiyatlarni aniqlaydi.

D) segment va supersegment birliklarni o'zaro qiyoslab, ulardagi umumiy va xususiy jihatlarni aniqlaydi.

E) A va B.

9. Fonetikaning anatomik-fiziologik aspektida nimalar o'rganiladi?

A) tovushning fizik tabiati.

B) tovushning balandligi.

D) tovushning cho'ziqligi.

E) tovushning biologik asosi.

10. Fonologiya qanday fan?

- D) reduksiya.
- E) geminatsiya.

23. *Birorta* > *bironta*. Bunda qanday fonetik hodisa sodir bo'lgan.

- A) assimilatsiya.
- B) dissimilatsiya.
- D) akkomodatsiya.
- E) metateza.

24. *Qishloq* > *qishlog'imiz*, *toboq* > *tovoq* so'zlarida portlovchi "q" va "b" undoshlarining sirg'aluvchi "g" va "v"ga o'tishi qanday fonetik hodisa sanaladi?

- A) austeza.
- B) diereza.
- D) gaplologiya.
- E) spirantizatsiya

25. So'z tarkibidagi ikkita bir xil bo'g'indan birining talaffuzda tushib qolishi (*morfofonologiya* > *morfonologiya* kabi) qanday fonetik hodisa sanaladi?

- A) austeza.
- B) prokopa.
- D) eliziya.
- E) gaplologiya.

26. Singarmonizm nima?

A) so'zning asosi va affiks tarkibidagi unilarning o'zaro uyg'unlashuvi (garmoniyasi).

B) urg'usiz bo'g'indagi unlining kuchsizlanishi.

D) so'z tarkibida yonma-yon qo'llangan ikki undoshning o'zaro moslashuvi.

E) portlovchi undoshning intervokal holatda sirg'aluvchi undoshga o'tishi.

27. Qaysi qatorda fonologik va fonetik cho'ziqlikka to'g'ri ta'rif berilgan?

A) fonetik cho'ziqlik ma'no ajratish vazifasini bajaradi. Fonologik cho'ziqlikda bu xususiyat yo'q.

B) fonetik cho'ziqlik individual hodisa bo'lib, har bir kishi talaffuzida o'zgacha bo'ladi, fonologik cho'ziqlik esa barcha kishilarda bir xildir.

D) fonetik cho'ziqlik birlamchi, fonologik cho'ziqlik esa ikkilamchi cho'ziqlik sanaladi.

E) fonetik cho'ziqlik ikkilamchidir, u ma'no ajratmaydi. Fonologik cho'ziqlik esa birlamchi bo'lib, ma'no ajratish xususiyatiga ega.

28. Fonema qatori nima?

A) o'zaro zidlashish munosabatida bo'lgan ikki fonema.

B) bir fonemaning turli pozitsiyadagi ko'rinishlari (ottenkalari).

- D) bir farqlamish belgisi asosida uyushib kelgan oppozitsiyalar qatori.
E) bir xil integral belgiga ega bo'lgan bir necha fonema.

29. Fonemalarning majburiy va fakultativ ottenkalari tog'ri ta'riflangan qatorlarni aniqlang.

A) majburiy ottenkalar - fonemalarning ayrim kishilar talaffuzidagi o'ziga xos ko'rinishlari.

B) fakultativ ottenkalar fonemaning bir xil fonetik pozitsiyadagi ikki xil ko'rinishi.

D) majburiy ottenkalar – fonemalarning so'z tarkibidagi yoki nutq oqimidagi fonetik qurshov ta'sirida yoxud ma'lum fonetik pozitsiya talabi bilan o'zgargan ko'rinishlari.

E) B va D.

30. Eliziyaga to'g'ri ta'rif berilgan qatorni aniqlang.

A) so'z tarkibidagi bir xil tovushlardan birining boshqa tovush ko'rinishiga o'tishi.

B) unli bilan tugagan so'zga unli bilan boshlangan so'zning qo'shilishi natijasida bir unlining tushib qolishi.

D) unli fonemaning urg'usiz bo'g'inda kuchsizlanishi.

E) yasama so'z tarkibidagi ikkita bir xil bo'g'indan birining talaffuzda tushib qolishi.

31. O'zbek milliy tilining oliy formasi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) yozuv tizimi.

B) shevalar.

D) hozirgi o'zbek adabiy tili.

E) eski turkiy til.

32. Fonetikaning maqsadi?

A) tovush va harf o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish.

B) fonetik birliklarning fizik-akustik, anatomik, fiziologik va lingvistik-funksional asoslarini o'rganish.

D) fonetik birliklarning til mexanizmidagi rolini aniqlash.

E) B va D.

33. Fonologik oppozitsiya to'g'ri ta'riflangan qatorni toping?

A) fonema ottenkalarining zidlanishi.

B) fonema variantlarining neytrallasuvi.

D) fonema qatori.

E) fonemalarning differensial belgilari asosida o'zaro zidlanishi.

34. "Hozirgi o'zbek tili" kursining bo'limlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) fonetika va fonologiya, areal lingvistika, tilshunoslikka kirish, semiotika, grammatika, onomastika, morfologiya, leksikografiya.

B) fonetika va fonologiya, grafika va orfografiya, dialektologiya, semasiologiya, morfologiya, sintaksis, leksikologiya, onomasiologiya.

D) fonetika va fonologiya, grafika va orfografiya, orfoepiya, til tarixi, frazeologiya, akustik fonologiya, tilshunoslik asoslari

E) fonetika va fonologiya, grafika va orfografiya, orfoepiya, leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya, morfologiya, soʻz yasalishi, sintaksis, punktuatsiya.

35. Qadimgi turkiy til va hozirgi oʻzbek adabiy tili konsonantizmiga oid maʼlumotlar qaysi qatorlarda toʻgʻri koʻrsatilgan?

A) qadimgi turkiy tilda *F, X, H, SH, J* undoshlari boʻlmagan, hozirgi oʻzbek adabiy tilida bu undoshlar bor.

B) qadimgi turkiy tilda *Q* va *K* undoshlari boshqa-boshqa (har biri alohida) fonemalar boʻlgan. Hozir ular bir fonemaning ikki xil koʻrinishi (ottenkalari) sanaladi.

D) qadimgi turkiy tilda *gʻ* va *g* tovushlari bitta “*g*”ning, *q* va *k* tovushlari esa bitta “*k*” ning koʻrinishlari (ottenkalari) boʻlgan. Hozir ular alohida-alohida fonemalar sanaladi.

E) A va D.

36. *Yilon > ilon, yigna > igna* soʻzlari boshidagi “*y*” ning tushib qolganligi qanday fonetik hodisa sanaladi?

A) proteza.

B) prokopa.

D) epenteza

E) sinkopa.

37. Fonetik soʻz nima?

A) leksema.

B) semema.

D) boʻgʻin.

E. Soʻzning fonetik qiyofasi, shakli.

38. Oʻzbek tilshunosligida qiyosiy fonetika boʻyicha ishlagan va ishlayotgan tilshunoslar qaysi qatorda toʻgʻri koʻrsatilgan?

A) X. Abdurahmonov, A. B. Abdullaev, Sh. Shoabdurahmonov, L. Abdullaeva.

B) A. Aliev, M. Asqarova, X. Abdurahmonov, R. Doniyorov.

D) E. D. Polivanov, A. M. Shcherbak, I. A. Kissen, H. Jamolxonov,

I. U. Asfandiyorov, S. Solijonov.

E) X. Doniyorov, S. Ibrohimov, X. Komilova, I. A. Rasulov, R. Rasulov.

39. Umumiy fonetika nimani oʻrganadi?

A) muayyan bir tilning fonetik tuzilishini.

B) ikki yoki bir necha tilning fonetik tizimlaridagi farqlarni.

D) barcha (yoki koʻpchilik) tillarning tovush tomoni uchun umumiy boʻlgan qonuniyatlar va hodisalarni.

E) A va B.

40. Eksperimental fonetika nimani tadqiq qiladi?
 A) tillar o'rtasidagi aloqalar ta'sirida sodir bo'ladigan fonetik hodisalarni.
 B) segment va supersegment birliklar o'rtasidagi aloqadorlikni.
 D) nutq tovushlarining fizik-akustik va artikulyasion jihatlarini maxsus asboblarda yordamida tadqiq qildi.
 E) A va B.
41. Fonetikaning perseptiv aspektida nimalar o'rganiladi?
 A) fonetik birliklarning ijtimoiy ahamiyati.
 B) fonetik birliklarning eshitish a'zolariga ta'sirini his etish va shu orqali so'z ma'nosini yoki gap mazmunini idrok qilish qonuniyatlari.
 D) fonetik birliklarning fizik komponentlari.
 E) nutq a'zolarining harakati va holati.
42. Segmental va supersegmental fonologiyalar qanday farqlanadi?
 A) segmental fonologiyada urg'ular tizimi, supersegmental fonologiyada esa fonemalar tizimi haqida ma'lumot beriladi.
 B) segmental fonologiyada segment birliklar – aksentema va intonema haqida, supersegmental fonologiyada esa supersegment birliklar – fonema va sillabemalar xususida fikr yuritiladi.
 D) segmental fonologiyada bo'g'in va ohang, supersegmental fonologiyada esa temp, tembr haqida ma'lumot beriladi.
 E) segmental fonologiyada fonemalar tizimi, supersegmental fonologiyada esa sillabema, aksentema va intonemalar o'rganiladi.
43. Fonemaga berilgan qaysi ta'rif to'g'ri?
 A) so'z va morfemalarning tovush qobig'ini farqlash orqali ularning ma'nolarini tafovutlash vazifasini bajaradigan eng kichik segment birlik.
 B) nutq tovushlarining kombinator omillar ta'sirida o'zgargan ko'rinishlari.
 D) nutq tovushlarining pozitsion omillar ta'sirida o'zgargan ko'rinishlari.
 E) nutq tovushlarining fizik-akustik komponentlari.
44. Opozitsiyadagi integral belgilar korrelatsiyada farqlovchi belgilar vazifasini bajaradimi?
 A) ha.
 B) yo'q.
 D) unilalarda - ha, undoshlarda – yo'q.
 E) undoshlarda - ha, unilalarda – yo'q.
45. Fonema ottenkalarining turlari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni aniqlang?
 A) majburiy ottenkalar.
 B) individual ottenkalar.
 D) fakultativ ottenkalar.
 E) barcha javoblar to'g'ri.

46. Hozirgi o'zbek adabiy tili vokalizmi necha unlini o'z ichiga oladi?

- A) 6 unlini.
- B) 7 unlini.
- D) 8 unlini.
- E) 9 unlini.

Grafika. Orfografiya. Orfoepiya

1. Grafika nima?

A. Muayyan tilning fonetik-fonologik, leksik-semantik va morfologik birliklarini yozuvda ifodalash uchun maxsus shakllantirilgan optik-grafik belgilar tizimi.

B. Muayyan tilda so'zlarni va so'z shakllarini to'g'ri yozish me'yorlarini belgilovchi qoidalar tizimi.

D. Muayyan tilning alifbo va orfografiyadan iborat yozuv tizimi.

E. A va D.

2. Grafema nima?

A. Fonemaning ifoda plani, fizik-akustik tabiati.

B. Leksemaning ifoda plani.

D. Leksemaning ifoda va mazmun planlari.

E. Muayyan tilning yozuv tizimidagi eng kichik funksional birlik.

3. Tovush tilining qaysi birligi kodlashtirilganligiga ko'ra "g" harfi qanday grafema sanaladi?

A. Prosodemografema.

B. Logografema.

D. Fonografema.

E. Orfografik belgi.

4. Tovush tilining qaysi birligi kodlashtirilgan bo'lishiga ko'ra 1,2,3 raqamlari qanday grafemalar hisoblanadi?

A. Signalizatorlar.

B. Logografemalar.

D. Prosodemografemalar.

E. Fonografemalar.

5. Tovush tilining qaysi birligi kodlashtirilganligiga ko'ra nuqta (.), vergul (,), undov belgisi (!) qanday grafemalar sanaladi?

A. Ramziy belgilar.

B. Simvollar.

D. Prosodemografemalar.

E. Fonografemalar.

6. Ifoda planidagi harflar miqdoriga ko'ra ng fonografemasi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Digraf (ikki harf qo'shilmasi bo'lgani uchun).
- B. Monograf (bir fonema kodlashtirilgani uchun).
- D. Poligraf (bir necha harfdan tarkib topganligi uchun).
- E. A va D.

7. Ifoda va mazmun planlariga ko'ra o fonografemasi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Ifoda planiga ko'ra – digraf (ikkita fonema kodlashtirilgan: *ota* so'zidagi quyi keng unli va *tonna* so'zidagi ruscha o'rta keng unli).
- B. Mazmun planiga ko'ra – bifonemali grafema: ikkita fonema kodlashtirilgan: quyi keng "o" (*ota* so'zidagi unli) va o'rta keng "o" (*tonna* so'zidagi unli).
- D. Ifoda planiga ko'ra – monograf (bir harfga asoslangani uchun).
- E. B va D.

8. O'zbek yozuvi tizimida logografemalarning qanday turlari bor?

- A. Arab raqamlari.
- B. Ingliz raqamlari.
- D. Rim raqamlari
- E. A va D.

9. Lotincha o'zbek alifbosining so'nggi varianti qachon qabul qilindi?

- A. 1993 yilning 2 sentabrida.
- B. 1995 yilning 6 mayida.
- D. 1995 yilning 24 avgustida.
- E. 1995 yilning 21 dekabrda.

10. Lotin o'zbek alifbosining amalga kiritilgan so'nggi variantida nechta grafik belgi bor?

- A. 31 ta harfiy belgi va bitta noharfiy belgi (tutuq belgisi).
- B. 35 harf, shundan ikkitasi diakritik harf.

D.30 ta harf va bitta tutuq belgisi.

E.26 ta harf va 3 ta qo'shma harflar (jami-29 ta)

11. Lotin o'zbek yozuvining grafik tizimida analitik grafemalar bormi?

A. Ha.

B. Yo'q.

D. Digraf shaklidagi turi bor.

E. A va D.

12. Lotin o'zbek yozuvining grafik tizimida sintetik grafema bormi?

A. Ha

B. Yo'q

D. Monograf shaklidagi turi bor.

E. Poligraf shaklidagi turi bor.

13. O'zbek tili unli fonemalarini yozuvda ifodalash uchun qo'llanadigan harflar miqdori lotin o'zbek alifbosida nechta?

A. 6 ta

B. 7 ta

D. 8 ta

E. 9 ta

14. O'zbek tili unli fonemalarini yozuvda ifodalash uchun qo'llanadigan harflar miqdori kirill o'zbek alifbosi va grafikasida nechta?

A. 6 ta

B. 7 ta

D. 9 ta

E. 10 ta

15. Qanday holatlarda so'zning yozma shaklida grafik-fonetik simmetriya ta'minlanadi?

A. Soʻz tarkibidagi fonografemalarning barchasi oddiy grafema shaklida boʻlganda.

B. Soʻzda fonografemalarning monograf va digraf shakllari aralash qoʻllanganda

D. Soʻzda fonografemalarning monograf va trigraf shakllari aralash qoʻllanganda.

E. Soʻzda fonografemalarning analitik va sintetik turlari aralash qoʻllanganda.

16. Qanday holatlarda soʻzning yozma shaklida grafik-fonetik asimmetriya yuz beradi?

A. Soʻzning yozma shaklida faqat monograf qoʻllanganda.

B. Soʻzning yozma shaklida monograf va digraflar aralash qoʻllanganda.

D. Soʻzning yozma shaklida oddiy va analitik grafemalar aralash qoʻllanganda.

E. B va D.

17. Sintetik va sinonim grafemalar hozir qoʻllanishda boʻlgan ikki yozuvdan qaysi birida bor?

A. Kirill oʻzbek yozuvida sintetik grafemalar bor, sinonim grafemalar yoʻq.

B. Lotin oʻzbek yozuvida sinonim grafemalar bor, sintetik grafemalar yoʻq

D. Lotin oʻzbek yozuvida sintetik grafemalar bor, sinonim grafemalar yoʻq.

E. Kirill oʻzbek yozuvida sintetik grafemalar ham, sinonim grafemalar ham bor.

18. Noharfiy grafik belgilar qaysi qatorda toʻgʻri koʻrsatilgan?

A. Fonografemalar.

B. Prosodemografemalar.

D. Logografemalar.

E. B va D.

19. Orfografiyaga qaysi qatorlarda toʻgʻri taʼrif berilgan?

A. Toʻgʻri yozish qoidalari tizimi.

B. Alifbodagi harflarning nutq tovushlari bilan aloqasini belgilaydigan qoidalar tizimi.

D. Tilshunoslikning imlo qoidalari va ularning tuzilishiga asos bo'lgan prinsiplar haqida ma'lumot beruvchi bo'limi.

E. A va D.

20. Orfografiya prinsiplari nima?

A. Imlo qoidalari.

B. Imlo qoidalarining yozma nutqdagi ahamiyati.

D. Imlo qoidalarining tuzilishiga asos bo'lgan tamoyillar.

E. Imlo qoidalari va talaffuz me'yorlari o'rtasidagi aloqalar tizimi.

21. *Anglamoq* fe'lining yozilishi qaysi prinsipga asoslangan?

A. Morfologik prinsipga.

B. Fonetik prinsipga.

D. Fonematik prinsipga.

E. Grafik prinsipga.

22. *Bitta* dona sonining yozilishi qaysi prinsipga asoslangan?

A. Grafik prinsipga.

B. Fonematik prinsipga.

D. Fonetik prinsipga.

E. Simvolik prinsipga.

23. *Tesha* (atoqli ot) va *tesha* (turdosh ot), *Muhabbat* (atoqli ot) va *muhabbat* (turdosh ot) so'zlarining yozilishi qaysi prinsipga asoslangan?

A. Differentsiatsiya prinsipiga.

B. Semantik-uslubiy prinsipga.

D. Shakliy-an'anaviy prinsipga.

E. Morfologik prinsipga.

24. *Ulug'*, *sariq* so'zlaridan yasalgan *ulg'aymoq*, *sarg'aymoq* fe'llarining yozilishi qaysi prinsipga asoslangan?

A. Morfologik prinsipga.

B. Semantik prinsipga.

D. Tarixiy-an'anaviy prinsipga.

E. Fonetik prinsipga.

25. *Maktab*, *savod*, *mazkur* so'zlarining yozilishi qaysi prinsipga asoslangan?

A. Fonetik prinsipga.

B. Fonematik prinsipga.

D. Semantik-uslubiy prinsipga.

E. Tarixiy an'anaviy prinsipga.

26. *Aytgan, aytguncha* kabi fe'l shakllarining yozilishi qaysi prinsipga asoslangan?

- A. Fonematik-morfologik prinsipga.
- B. Fonetik prinsipga.
- D. Morfologik prinsipga.
- E. A va D

27. *Majlis va jurnal* soʻzlarining yozilishi qaysi prinsipga asoslangan?

- A. Fonetik prinsipga.
- B. Grafik prinsipga.
- D. Fonematik-morfologik prinsipga.
- E. Tarixiy-anʼanaviy prinsipga.

28. *Taqozo, Jumhuriyat* soʻzlarining yozilishi qaysi prinsipga asoslangan?

- A. Fonetik prinsipga.
- B. Fonematik prinsipga.
- D. Grafik prinsipga
- E. Tarixiy-anʼanaviy prinsipga.

/ /

29. *Atlâş, atlas, davo, da'vo* soʻzlarida urgʻu belgisi va tutuq belgisining ishlatilishi orfografiyaning qaysi prinsipi talablaridan kelib chiqadi?

- A. Fonetik prinsip talabidan.
- B. Semantik-uslubiy prinsip talabidan.
- D. Differensiatsiya yoki simvolik (ramziy) prinsip talabidan.
- E. Grafik prinsip talabidan.

30. *Shkaf, nashr, go'sht* kabi soʻzlarning yozilishi qaysi prinsipga asoslangan?

- A. Shakliy-anʼanaviy prinsipga.
- B. Grafik prinsipga.
- D. Semantik-uslubiy prinsipga.
- E. Differensiatsiya prinsipiga.

31. *Ona va ona, Siz va siz, Vatan va vatan* soʻzlarining yozuvda kichik yoki bosh harf bilan boshlanishi qaysi prinsipga asoslanadi?

- A. Fonetik prinsipga.
- B. Fonematik prinsipga.
- D. Morfologik prinsipga.
- E. Semantik-uslubiy prinsipga.

32. Kirill oʻzbek yozuvi uchun tuzilgan "Oʻzbek orfografiyasining asosiy qoidalari" qanday boʻlimlarni oʻz ichiga oladi?

- A. 1) ayrim unlilar imlosi; 2) ayrim undoshlar imlosi;

- 3) soʻz formalari imlosi; 4) juft soʻzlar imlosi;
 5) bosh harflar imlosi; 6) boʻgʻin koʻchirilishi.
 B. 1) harflar imlosi; 2) asos va qoʻshimchalar imlosi;
 3) qoʻshib yozish; 4) chiziqcha bilan yozish; 5) ajratib yozish;
 6) bosh harflar imlosi; 7) koʻchirish qoidalari.
 D. 1) ayrim harflarning imlosi; 2) oʻzak-negiz va qoʻshimchalar imlosi;
 3) qoʻshma soʻzlar, soʻz birikmalari imlosi;
 4) boʻgʻin koʻchirilishi; 5) bosh harflarning yozilishi.
 E. 1) ayrim tovushlar imlosi; 2) qoʻshma va murakkab soʻzlar imlosi;
 3) juft va takroriy soʻzlar imlosi; 4) boʻgʻin koʻchirilishi;
 5) bosh harflarning yozilishi.

33. Lotin oʻzbek yozuvi uchun tuzilgan "Oʻzbek tilining asosiy imlo qoidalari" qanday boʻlimlarni oʻz ichiga oladi?

- A. 1) ayrim tovushlar imlosi; 2) qoʻshma va murakkab soʻzlar imlosi;
 3) juft va takroriy soʻzlar imlosi; 4) boʻgʻin koʻchirilishi;
 5) bosh harflarning yozilishi.
 B. 1) ayrim harflarning imlosi; 2) oʻzak-negiz va qoʻshimchalar imlosi;
 3) qoʻshma soʻzlar, soʻz birikmalari imlosi;
 4) boʻgʻin koʻchirilishi; 5) bosh harflarning yozilishi.
 D. 1) harflar imlosi: unililar imlosi, undoshlar imlosi;
 2) asos va qoʻshimchalar imlosi; 3) qoʻshib yozish;
 4) chiziqcha bilan yozish; 5) ajratib yozish;
 6) bosh harflar imlosi; 7) koʻchirish qoidalari.
 E. 1) ayrim unililar imlosi; 2) ayrim undoshlar imlosi;
 3) soʻz formalari imlosi; 4) qoʻshma soʻzlar imlosi;
 5) juft va takroriy soʻzlar imlosi;
 6) bosh harflar imlosi; 7) boʻgʻin koʻchirilishi.

34. Kirill va lotin oʻzbek yozuvlari imlo qoidalari qaysi qatorda amal qilingan?

- A. Оп-у номус, or-u nomus.
 B. Ору номус, oru nomus.
 D. Op-y номус, ogy nomus.
 E. Ору номус, or-u nomus.

35. Kirill va lotin oʻzbek yozuvlari imlo qoidalari qaysi qatorda amal qilingan?

- A. Йилдан йилга, yildan yilga.
 B. Йилдан-йилга, yildan-yilga.
 D. Йилдан йилга, yildan-yilga.
 E. Йилдан-йилга, yildan yilga.

36. Kirill va lotin o'zbek yozuvlari imlo qoidalariga qaysi qatorda amal qilingan?

- A. Кўпдан кўп, ko'pdan ko'p.
- B. Кўпдан-кўп, ko'pdan ko'p.
- D. Кўпдан кўп, ko'pdan-ko'p.
- E. Кўпдан-кўп, ko'pdan-ko'p.

37. Quyidagi so'zning kirill va lotin o'zbek yozuvlarida yozilishi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Мўътадил, motadil.
- B. Мўтадил, mo'tadil.
- D. Мўтадил, mo'tadil.
- E. Мўътадил, mo'tadil.

38. Har ikki yozuvning imlo qoidalariga qaysi qatorda amal qilingan?

- A. Музёрап, muzyorar.
- B. Муз ёрап, muzyorar.
- D. Музёрап, muz yorar.
- E. Муз ёрап, muz yorar.

39. Qaysi qatorda so'zlar to'g'ri yozilgan?

- A. Бугдой ранг, кеча-ю кундуз. Bug'doy rang, kecha-yu kunduz.
- B. Бугдойранг, кечаю кундуз. Bug'doyrang, kechayu kunduz.
- D. Бугдой-ранг, кечаю кундуз. Bug'doy-rang, kechayu kunduz.
- E. Бугдой ранг, кечаю кундуз. Bug'doyrang, kecha-yu kunduz.

40. Qaysi qatorda so'zlar to'g'ri yozilgan?

- A. Кувир, quvir.
- B. Кувур, quvir.
- D. Кувур, quvur.
- E. Кувир, quvur.

41. Qaysi qatorda fe'l shakli to'g'ri yozilgan?

- A. Увулламоқ, uvullamoq.
- B. Увилламоқ, uvillamoq.
- D. Увулламоқ, uvillamoq.
- E. Увилламоқ, uvullamoq.

42. Qaysi qatorda ot va fe'llar to'g'ri yozilgan?

- A. Шовил, шовилламоқ. Shovil, shovillamoq.
- B. Шовул, шовулламоқ. Shovul, shovullamoq.
- D. Шовил, шовулламоқ. Shovil, shovullamoq.
- E. Шовул, шовилламоқ. Shovul, shovullamoq.

43. Qaysi qatorda imlo qoidalariga amal qilingan?

A. 2003-йил, 2003-йил.

B. 2003 йил, 2003-йил.

D. 2003-йил, 2003 йил.

E. A va D.

44. Qaysi qatorda otning jo'nalish kelishigidagi shakli to'g'ri yozilgan?

A. Токқа, тоққа.

B. Токга, тоқга

D. Токка, тоққа.

E. Токқа, тоғ'га.

45. Qaysi qatorda birikmali nom to'g'ri yozilgan?

A. Мустақиллик Куни, Mustaqillik Kuni.

B. Мустақиллик Куни, Mustaqillik kuni.

D. Мустақиллик куни, Mustaqillik Kuni.

E. Мустақиллик куни, Mustaqillik kuni.

46. Qaysi qatorda ko'chirish qoidasiga amal qilingan?

A. Порт-рет. Port-ret.

B. Пор-трет. Por-tret.

D. Порт-рет. Port-ret.

E. Порт-рет. Port-ret.

47. Qaysi qatorda ko'chirish qoidasiga amal qilingan?

A. X.M.Абдул-лаев, H.M.Abdul-layev.

B. X.M.-Абдуллаев, H.M.-Abdullayev.

D. X.M.Аб-дуллаев, H.M.Ab-dullayiv.

E. A va D.

48. Qaysi qatorda ko'chirish qoidasiga amal qilingan?

A. Тош-ДПУ, Tosh-DPU.

B. ТошД-ПУ, ToshD-PU.

D. Био-графия, Bio-grafiya .

E. A va B.

49. Quyidagi birikmali nom qaysi qatorda to'g'ri yozilgan?

A. Ўзбекистон республикаси Олий мажлиси,

О'zbekiston respublikasi Oliy majlisi

B. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси,

О'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi,

D. Ўзбекистон республикаси Олий мажлиси,

О'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi.

E. Ўзбекистон республикаси Олий мажлиси,

О'zbekiston respublikasi Oliy majlisi,

50. Qaysi qatorda geografik nomlar imlosiga amal qilingan?

- A. Тўй тепа, Олтиариқ, Ўрта-чирчиқ,
То'у тепа, Oltiariq, O'rtachirchiq.
- B. Тўйтепа, Олтиариқ, Ўрта Чирчиқ,
То'утепа, Oltiariq, O'rtachirchiq.
- D. Тўй -тепа, Олтиариқ, Ўртачирчиқ,
То'у-Тера, Oltiariq, O'rtachirchiq.
- E. Тўй тепа, Олтиариқ, Ўрта-чирчиқ,
То'у Тера, Olti Ariq, O'rtachirchiq.

51. Qaysi qatorda so'zlar to'g'ri yozilgan?

- A. Умум халқ, бутун жаҳон, миллатлар аро, вице адмирал,
Umum xalq, butun jahon, millatlar aro, vitse admiral.
- B. Умумхалқ, бутунжаҳон, миллатлараро, вице-адмирал
Umumxalq, butunjahon, millatlararo, vitse-admiral.
- D. Умум-халқ, бутун- жаҳон, миллатлар-аро, вице-адмирал,
Umum-xalq, butun-jahon, millatlar- aro, vitse- admiral.
- E. Умум халқ, бутун- жаҳон, миллатлар аро, вице адмирал,
Umum xalq, butunjahon, millatlararo, vitseadmiral.

52. Qo'shma so'zlar qaysi qatorda to'g'ri yozilgan?

- A. Кўз ойнак, ҳаво ранг, меҳнат севар, муз ёраp,
Ko'z oynak, havo rang, mehnat sevar, muz yorar.
- B. Кўзойнак, ҳаво ранг, меҳнатсевар, муз ёраp,
Ko'zoynak, havorang, mehnatsevar, muzyorar.
- D. Кўзойнак, хаворанг, меҳнатсевар, музёраp,
Ko'zoynak, havorang, mehnatsevar, muzyorar.
- E. A va D.

53. O'zbek xalqi 1929-yilgacha qaysi yozuvda ish ko'rgan?

- A. Uyg'ur alifbosi asosidagi yozuvda.
- B. Arab grafikasidagi o'zbek yozuvida.
- D. Rus grafikasidagi o'zbek yozuvida.
- E. A va D.

54. Qaysi yillarda arab grafikasidagi eski o'zbek yozuvi qisman isloh qilinadi?

- A. 1915-1916-yillarda.
- B. 1917-1918-yillarda.
- D. 1921-1923-yillarda.
- E. 1926-1927-yillarda.

55. Arab grafikasidan voz kechib, lotin grafikasiga o'tish kerakligi haqida birinchi taklif qachon va qayerda kiritiladi?

A.1921-yilda, Toshkentda: alifbo va imlo masalalariga bag'ishlangan birinchi O'lk a qurultoyida kiritiladi.

B.1922-yilda, Toshkentda: Turkiston Respublikasi "O'zbek madaniyati va maorifi xodimlari qurultoyida".

D.1923-yilda,Buxoroda: O'rta Osiyo o'zbeklarining alifbo va imlo masalalariga bag'ishlangan birinchi konferensiyasida.

E.1926-yilda,Bokuda: Turkologlarning birinchi Butunittifoq qurultoyida.

56.O'zbekistonda Yangi alifbe Markaziy qo'mitasi qachon tuzildi?

A.1924-yilda.

B.1925-yilda.

D.1926-yilda.

E.1927-yilda.

57..Lotin grafikasidagi birlashgan turk alifbosiga asoslangan o'zbek yozuvi qachon amalga kiritildi?

A.1921-1923-yillarda.

B.1923-1924-yillarda.

D.1925-1926-yillarda.

E.1927-1929-yillarda.

58.Lotin grafikasidagi o'zbek yozuvida qaysi yillargacha ish ko'rilgan?

A.1938-yilgacha.

B.1939-yilgacha.

D.1941-yilgacha.

E. B va D.

59.Rus grafikasiga asoslangan yangi o'zbek alifbosi qachon tasdiqlanadi?

A.1938-yilning 9-dekabrida.

B.1939-yilning 23-oktyabrida.

D.1939-yilning 18-noyabrida.

E.1940-yilning 8-mayida.

60..Rus grafikasiga asoslangan o'zbek yozuvining imlo qoidalari – "O'zbek adabiy tilining orfografiyasi" qachon tasdiqlandi? Uning qayta ishlangan,takomillashtirilgan so'nggi varianti-chi?

A.1940-yilning 8-mayida, qayta ishlangan varianti-1940-yilning 5-iyunida.

B.1940-yilning 4-iyulida, qayta ishlangan varianti-1956-yilning 4-aprelida.

D.1941-yilning 12-martida,qayta ishlangan varianti-1952-yilning 9-aprelida.

E.1942-yilning 8-yanvarida, qayta ishlangan varianti-1957-yilning 6-iyulida.

61. Rus grafikasidagi o'zbek yozuvining qaysi jihatlarini uzoq yillar davomida turli munozaralarga sabab bo'lib keldi?

A. O'zbek tilining milliy tovushlari bo'lgan sayoz til orqa "ng", qorishiq "j" undoshlari va quyi keng "o" unlisi uchun alifboda maxsus harfning yo'qligi

B. Alifbodagi e, ё, ю, я kabi harflarning sintetik xarakteri (bir yo'la ikki tovushni ifodalashi).

D. Ayirish va yumshatish belgilarining o'zbek tili fonologik tizimiga mos emasligi

E. Barcha javoblar to'g'ri.

62. 1991-1992-yillarda o'zbek yozuvi atrofida qanday g'oyalar paydo bo'lgan?

A. Rus grafikasi asosidagi alifboni lotin grafikasi asosidagi yangi alifbo bilan almashtirish.

B. Rus grafikasidagi o'zbek yozuvining o'zini saqlash, unga ayrim o'zgarishlar kiritish bilan cheklanish.

D. Arab grafikasi asosidagi eski o'zbek yozuvini tiklash.

E. Barcha javoblar to'g'ri.

63. Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek alifbosining birinchi varianti qachon tasdiqlandi?

A. 1993-yilning 2-sentabrda.

B. 1995-yilning 6-mayda.

D. 1995-yilning 24-avgustida.

E. 1995-yilning 21-dekabrda.

64. Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek alifbosining ikkinchi (o'zgartirilgan) varianti qachon tasdiqlandi?

A. 1993-yilning 2-sentabrda.

B. 1993-yilning 21-dekabrda.

D. 1994-yilning 8-mayda.

E. 1995-yilning 6-mayda.

65. Lotin grafikasiga asoslangan o'zbek alifbosining birinchi va ikkinchi variantlarida nechadan belgi bor?

A. Birinchi variantida 35 ta belgi (33 ta harf va ikkita belgi).

B. Ikkinchi variantida 31 ta harf va 1 ta tutuq belgisi.

D. Birinchi variantida 31 ta harf va 1 ta tutuq belgisi. Ikkinchi variantida 29 belgi (26 ta harf va 3 ta qo'shma harf)

E. A va D

66. Lotin grafikasiga asoslangan yangi o'zbek yozuvining imlo qoidalari qachon tasdiqlandi?

A. 1993-yilning 2-sentyabrda.

B. 1994-yilning 8-mayda.

D. 1995-yilning 6-mayda.

E. 1995-yilning 24-avgustida.

67. Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuviga to'liq o'tish jarayoni qachon yakunlanishi kerak?

- A. 2001-yilda.
- B. 2002-yilda.
- D. 2004-yilda.
- E. 2010-yilda.

68. Og'zaki nutqning adabiy talaffuz me'yorlarini tilshunoslikning qaysi bo'limi o'rganadi?

- A. Morfologiya.
- B. Fonetika.
- D. Orfografiya.
- E. Orfoepiya.

69. Harflarga nisbatan kam miqdordagi tovushlar bilan talaffuz qilinadigan so'zlar qatorini toping.

- A. Nutq, daraxt, zehn, zambarak.
- B. Metr, farzand, zarurat, magistr.
- D. Do'st, baland, go'sht, dastyor.
- E. G'isht, farzand, yurist, do'st.

70. **ng** harfiy birikmasi bir tovushni ifodalagan qatorni aniqlang.

- A. Jang, Tebrangan, menga, yengil.
- B. Bolangiz, singil, ingramoq, ko'ngil.
- D. Kongress, durang, zang, nonga.
- E. Tongi, singil, shingil, yongan.

71. Sirg'aluvchi *j* tovushli so'zlar qatorini aniqlang?

- A. Jabr, jamiyat, jamoa, janub.
- B. Javohir, jargon, jun, jo'yak.
- D. Ajdar, gijda, mujda, vijdon.
- E. Jahl, jemper, jeton, mujmal.

72. *Q* tovushi *x* kabi talaffuz qilinadigan so'zlar qatorini toping.

- A. Oqibat, iqlim, ishqor, faqir.
- B. Saqla, taqsimot, maqsad, oqsil.
- D. To'qson, to'qmoq, saqich, muqova.
- E. To'qlik, to'qim, oqlamoq, muqim.

73. Sirg'aluvchi jarangsiz *f* undoshi *p* tarzida talaffuz qilinadigan so'zlar qatorini aniqlang.

- A. Daftar, sadaf, foyda, faqat.
- B. Fil, fosh, farq, filosof.

- D.Fido, taraf, afzal, flot.
- E.Latif, fe'l, fond, fonetika.

74.Talaffuzda bir tovushning boshqasiga almashishi mumkin bo'lgan so'zlar qatorini toping.

- A.Tinmoq, xamir, samo, manmanlik.
- B.Yonma-yon, fazo, sanam, mamnunlik.
- D.Shanba, saylanma, sinmoq, yonboshi.
- E.Xomush, ko'rinmoq, qamish, qandil.

75.Qaysi qatordagi so'zlarning oxirida kelgan jarangli undoshlar talaffuzda jarangsizlashadi?

- A.Girdob, qishloq, ang'iz, anhor.
- B.Sayoz, tog', barg, armon.
- D.Bargak, asal, araz, anjir.
- E.Maktab, talab, avlod, madad.

76.Talaffuziga ko'ra ma'nosi o'zgargan so'zni aniqlang.

- A. Juft.
- B.To'rt.
- D. G'isht.
- E. Dasht.

77. Qaysi qatordagi so'zlarning talaffuzida assimilatssiya hodisasi sodir bo'lgan?

- A.Shanba, qishlog'imiz.
- B.Tuzsiz, baliq.
- D Novvoy, qishlog'i.
- E.Terakka, aytgan.

78. Qaysi qatordagi so'zlarning talaffuzida dissimilatssiya hodisasi sodir bo'ladi?

- A. Ittifoq, muddat.
- B. Zarur, izzat.
- D. Uchta, maqtanmoq.
- E. Zarur, yomg'ir.

79.Talaffuzda uslubiy maqsadga ko'ra geminatssiya hodisasiga uchragan so'zlar qatorini toping.

- A.Haqqi, mazza.
- B.Ikki, qattiq.
- D.Achchiq, oppoq.
- E.Muhabbat, marra.

80.Talaffuzda eliziya hodisasiga uchragan so'zlar qatorini toping.

- A. Shoakbar, Absalom.
- B. Kelarmish, kelarkan.
- D. Boroldi, aytgandi.
- E. Dilorom, yozoldi.

81. Talaffuzda urg'u o'rni o'zgarishi bilan ma'nosi o'zgaradigan so'zlar qatorini toping?

- A. Qovurma, yurma.
- B. Yangi, qushcha.
- D. Bolacha, ko'rpacha.
- E. Suzma, kelma.

Leksikologiya. Frazologiya. Leksikografiya

1. Leksikografiyaning obyekti va maqsadi:

A. Obyekti - so'z yasalishi. Maqsadi - so'z yasalishining qonuniyatlari va usullarini o'rganish.

B. Obyekti - tilning tovush tomoni. Maqsadi - tilning tovush tomoni ni o'rganish.

D. Obyekti - tilning grammatik qurilishi. Maqsadi - tilning grammatik qurilishini o'rganish.

E. Obyekti - tilning lug'at boyligi. Maqsadi - lug'at boyligining taraqqiyot qonuniyatlari, uning ijtimoiy-dialektal, tarixiy va hokazo qatlamlarini aniqlash.

2. Lug'at boyligidagi eskirish va yangilanish jarayonini qanday tushunasiz?

A. Konsonantizm tizimidagi o'zgarishlarni.

B. Ayrim so'zlarning turli lisoniy va nolisoniy omillar ta'sirida iste'moldan chiqishini.

D. Ijtimoiy - ma'rifiy va iqtisodiy taraqqiyot talabiga ko'ra yangi so'z va atamalarning yuzaga kelishini.

E. B va D.

3. Qaysi qatorda ifodalovchi so'zlar to'g'ri ko'rsatilgan?

A. Mustaqil so'zlar.

B. Modal so'zlar va yuklamalar.

D. Undov va taqlid so'zlar.

E. B va D.

4. Atovchi so'zlar nomlovchi so'zlardan nimasi bilan farqlanadi?

A. Atovchi so'zlar bir turdagi narsa-hodisalarning barchasini umumlashtirib nomlaydi. Nomlovchi so'zlar esa shulardan faqat bittasini ataydi. Unda shartlilik belgisi ustun bo'ladi.

- B. Nomlovchi so'zlar bir turdagi narsa-hodisalarning barchasini umumlashtirib nomlaydi. Atovchi so'zlar esa shulardan faqat bittasini alohida ataydi. Unda shartlilik ustun bo'ladi.
- D. Nomlovchi so'zlar ish-harakatni ifodalaydi, atovchi so'zlar esa bir turdagi barcha predmetlarni nomlaydi.
- E. Atovchi so'zlar ish-harakatning belgisini, nomlovchi so'zlar esa belgining belgisini ifodalaydi.

5. Leksema nima uchun bilateral hodisa sanaladi?

- A. Til birligi bo'lganligi uchun. B. Nutqiy birlik bo'lganligi uchun.
- D. Faqat ifoda planiga ega birlik bo'lganligi uchun.
- E. Ifoda va mazmun planlari birligidan tarkib topganligi uchun.

6. Leksik ma'no va tushuncha bir narsami?

- A. Yo'q, chunki leksik ma'no til birligi, tushuncha esa logik birlik
- B. Ha, chunki leksik ma'no bilan tushuncha barcha tillarda mavjud.
- D. Yo'q, chunki leksik ma'no muayyan bir til birligi bo'lib, ko'pincha milliy xarakterda bo'ladi, tushuncha esa barcha millat vakillarida bir xil bo'lganligidan baynalmilal (internatsional) birlik sanaladi.
- E. A va D.

7. Signifikativ ma'no nima?

- A. So'zning denotat bilan aloqasi.
- B. So'zning grammatik ma'nosi.
- D. Fonetik so'z bilan predmet haqidagi tasavvurning kishi ongida bog'lanishidan hosil bo'lgan ma'no.
- E. A va B.

8. Leksemaning ifoda planidagi asosiy hodisa nima?

- A. Nutq tovushlari. B. Bo'g'in. D. Urg'u.
- E. Fonetik birliklarning ma'lum tartibda joylashuvidan tarkib topgan fonetik so'z.

9. Qaysi qatordagi so'zlarning semantik tarkibida uslubiy bo'yoq bor?

- A. Kulmoq. B. Tirjaymoq. D. Irjaymoq. E. B va D

10. Zamoniyluk jihatidan so'zlar qanday qatlamlarga birlashadi?

- A. Aktiv va passiv so'zlar qatlamiga.
- B. Uslubiy betaraf va uslubiy chegaralangan so'zlar qatlamiga.
- D. Nomlovchi va olmoshlovchi so'zlar qatlamiga.
- E. Eskirgan so'zlar, yangi so'zlar va zamonaviy so'zlar qatlamiga.

11. Frazemaning semantik tarkibida uslubiy bo'yoq bo'ladimi?

- A. Bo'ladi. B. Bo'lmaydi. D. Bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin.

E. Bo'lishi shart emas.

12. Qaysi qatorda omofonlar mavjud?

A. Bog' ("mevali bog") - bog' ("bir bog' piyoz")

B. Bob ("romanning birinchi bob") - bop ("suv bo'g'ishga bop ketmon")

D. Tom ("uyning tomi") - tom ("kitob tomi")

E. Asir ("asir olingan kishi") - asr ("100 yil")

13. Qaysi ustunda lug'at maqolalarini joylashtirish prinsiplariga amal qilingan?

A.

B.

D

E

Azob

A'zo

Azob

Abzal

A'zo

A'lo

Azon

Avzo

Azon

Azob

A'zo

Azob

A'lo

Azon

A'lo

Azon

Abzal

Abzal

Abzal

A'zo

Avzo

Avzo

Avzo

A'lo

14. Leksikologiyaning turlari:

A. Umumiy leksikologiya, leksikografiya, semiotika, sinxron leksikologiya.

B. Umumiy leksikologiya, diaxron leksikologiya, leksik stilistika

D. Umumiy leksikologiya, xususiy leksikologiya (diaxron leksikologiya, sinxron leksikologiya).

E. Umumiy leksikologiya, dialektal leksika, sinxron leksikologiya

15. Frazologiyaning obyekti:

A. So'z.

B. So'z shakli.

D. So'z birikmasi.

E. Ko'chma ma'noli turg'un konstruksiyalar.

16. Leksikografiyaning predmeti:

A. Tilning lug'at tarkibi.

B. Tilning tovush tomoni.

D. Lug'at tarkibining tarixiy qatlamlari.

E. Lug'atchilik

17. **Biologiya, geometriya** so'zlari o'zbek tili lug'at boyligining qaysi qatlamiga mansub?

A. O'z qatlamga (umumturkiy so'zlar guruhiga).

B. O'z qatlamga (o'zbek tilida yasalgan so'zlar guruhiga).

D. O'zlashgan qatlamga (rus tili orqali o'zlashgan baynalmilal so'zlar guruhiga).

E. O'zlashgan qatlamga (arabcha so'zlar guruhiga).

18. Quyidagi qatorlardan qaysi birida antonimlar bor?

A. Chiroyli, xushro'y, go'zal, zebo

- B. Oq va qora, yaxshi va yomon.
 D. Yod ("yodlamoq") va yot ("begona").
 E. Asir va asr.
19. Quyidagi so'zlardan qaysilari istorizm va arxaizmlar sanaladi?
 A. Metr, kilometr, santimetr.
 B. Gramm, kilogramm, tonna.
 D. Metafora, kulminatsiya, kompozitsiya.
 E. Dinor, chaqirim, botmon, bitik, dudoq.
20. Leksemalarning ishlatilish doirasiga ko'ra lug'aviy birliklar (so'zlar) qanday guruhlanadi?
 A. O'zbekcha so'zlar, umumturkiy so'zlar, tojik-fors so'zlari, arabcha so'zlar.
 B. Umumxalq lug'aviy birliklar, dialektal lug'aviy birliklar, kasb-hunar leksikasi, ijtimoiy dialektlarga xos so'zlar.
 D. Rus tili orqali o'zlashtirilgan baynalmilal so'zlar.
 E. Ilmiy uslubga xoslangan so'z va atamalar.
21. Qaysi qatorda frazeologik antonimlar mavjud?
 A. "Qo'lini bigiz qilmoq" va "Barmog'ini bigiz qilmoq".
 B. "Qo'l qo'ymoq" va "Imzo chekmoq".
 D. "Boshi osmonga yetmoq" / "Xursand bo'lmoq" / va "Terisiga sig'maslik" / "Xursand bo'lmoq" /
 E. "Yerga urmoq" / "Yomonlamoq" / va "Ko'kka ko'tarmoq"
22. Lug'at maqolalari qanday prinsiplar asosida joylashtiriladi?
 A. Leksik - semantik prinsiplar asosida.
 B. Analitik va sintetik prinsiplar asosida.
 D. Lisoniy va nolisoniy prinsiplar asosida.
 E. Tashqi tartib, ichki tartib va semantik-mazmuniy prinsiplar asosida.
23. Xalq etimologiyasi va ilmiy etimologiya nimalarga asoslanadi?
 A. Xalq etimologiyasi so'zlarning jonli so'zlashuvdagi talaffuziga asoslanadi, ilmiy etimologiya esa adabiy talaffuz me'yorlariga tayanadi.
 B. Xalq etimologiyasi so'zlarning kelib chiqishini ilmiy xulosalarga tayanib belgilaydi, ilmiy etimologiya esa so'zlarning kelib chiqishini xalqdagi taxminlar asosida aniqlaydi.
 D. Xalq etimologiyasi so'zlarning kelib chiqishini aniqlashda xalq orasidagi turli taxminlarga tayanadi, ilmiy etimologiya esa so'zlarning kelib chiqishini ilmiy xulosalarga tayanib belgilaydi.
 E. Xalq etimologiyasi so'zlarning kelib chiqishini so'z tarkibidagi morfemalar tarkibida sodir bo'ladigan o'zgarishlar asosida aniqlaydi, ilmiy etimologiya esa so'zlarning kelib chiqishini tarixiy faktlar bilan bog'lab izohlaydi.

24. Leksemaning semantik tarkibi tilshunoslikning qaysi bo'limida o'rganiladi?
 A. Semasiologiyada.
 B. Fonologiyada.
 D. Etimologiyada
 E. Leksikografiyada
25. Diaxron leksikologiya tilning lug'at boyligini qaysi nuqtayi nazardan o'rganadi?
 A. Muayyan til lug'at boyligining tarixiy taraqqiyotini aniqlash nuqtayi nazaridan
 B. Muayyan til lug'at boyligining statik holatini tavsiflash nuqtayi nazaridan
 D. Muayyan til lug'at boyligining ijtimoiy-dialektal qatlamlarni aniqlash nuqtayi nazaridan
 E. Ikki tilning lug'at boyliklarini o'zaro qiyoslash nuqtayi nazaridan
26. Qaysi javobda leksik-frazeologik sinonimlar qatori mavjud?
 A. Ayyor, mug'ambir.
 B. Ayyor, tulki /ko'chma ma'noda/, mug'ambir.
 D. Ayyor, mug'ambir, pixini yorgan, ilonning yog'ini yalagan.
 E. Pixini yorgan, ilonning yog'ini yalagan, burganing ko'zini ko'rgan.
27. Funktsional o'xshashlik asosida ma'noning ko'chirilishi qaysi qatorda to'g'ri ta'riflangan?
 A. Qism bilan butun munosabati asosida qismning nomi butunni ifodalaydi.
 B. Bajaradigan vazifalaridagi nisbiy o'xshashlik asosida bir predmetning nomi boshqasini ham ifodalay boshlaydi.
 D. Narsa-predmetlar, belgi-xususiyatlar va harakatlar o'rtasidagi aloqadorlik asosida ulardan birining nomi ikkinchisiga ko'chiriladi.
 E. Predmetlar o'rtasidagi nisbiy o'xshashlik asosida ulardan birining nomi boshqasini ham ifodalaydi.
28. Sinekdoxa yo'li bilan ma'noning ko'chirilishi qaysi qatorda to'g'ri ta'riflangan?
 A. Predmetlar o'rtasidagi shakliy o'xshashlik asosida shu predmetlardan birining nomi ikkinchisiga ko'chiriladi.
 B. Bajaradigan vazifalari o'zaro o'xshash bo'lgan narsa-predmetlardan birining nomi ikkinchisiga ko'chiriladi.
 D. Narsa-predmetlar o'rtasidagi bog'liqlik asosida ulardan birining nomi ikkinchisiga ko'chiriladi.
 E. Qism va butun munosabati asosida shulardan birining nomi ikkinchisiga ko'chiriladi
29. Umumturkiy so'zlarda qaysi fonemalar qo'llanmaydi?
 A. H
 B. S

- D. F
- E. A va D

30. Umumturkiy so'zlarning oxirida qaysi fonemalar qo'llanmaydi?

- A. A va D
- B. I va L
- D. U va Q
- E. E va O'

31. So'z boshida undoshlarning qatorlashib kelmasligi qaysi qatlam so'zlariga xos?

- A Umumturkiy so'zlarga
- B. Tojik tilidan o'zlashgan so'zlarga
- D. Arab tilidan o'zlashgan so'zlarga
- E. Rus tili orqali o'zlashgan baynalmilal so'zlarga

32. Frazemaning semantik tarkibi nimalardan iborat?

- A. Tovush va bo'g'inlardan
- B. Aksentema va intonemadan
- D. Frazeologik ma'no va uslubiy bo'yoqdan
- E. Leksik ma'no va leksik qo'llashdan

33. Lug'at boyligi taraqqiyotini belgilovchi lisoniy (lingvistik) omillarga nimalar kiradi?

- A. Jamiyat taraqqiyoti
- B. Ong, tafakkur
- D. Boshqa tillardan so'z o'zlashtirish
- E. Muayyan tilning so'z yasalishi, leksik ma'no taraqqiyoti qonunlari

34. So'z o'zlashtirishning qanday usullari bor?

- A. Fonetik va orfoepik usullari
- B. Leksik va grammatik usullari
- D. O'zicha olish va kalkalab olish
- E. Jonli muloqot orqali o'zlashtirish

35. Leksik ma'no miqdorining o'zgarishiga olib keluvchi qonuniyat qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Ma'noning ko'chishi
- B. Ma'noning kengayishi
- D. Ma'noning torayishi
- E. Ma'noning yangilanishi

36. Shaki munosabatiga ko'ra so'zlar qanday guruhlarga birlashadi?

- A. Omonimlarga
- B. Sinonimlarga
- D. Paronimlarga
- E. A va D

37. Umumturkiy so'zlarning boshida ikki yoki uch undosh qatorlashib keladimi?

- A. Ha

- B. Yo'q.
 D. Bir bo'g'inli so'zlarda uchramaydi.
 E. Ko'p bo'g'inli so'zlarda uchraydi
38. Umumturkiy so'zlarning ikkinchi bo'g'ini unli bilan boshlanadimi?
 A. Ha.
 B. Yo'q.
 D. Ayrim so'zlarning ikkinchi bo'g'ini unli tovush bilan boshlangan bo'lishi mumkin.
 E. Eng qadimgi turkiy so'zlarning ikkinchi bo'g'ini unli bilan boshlanishi mumkin.
39. Leksemaning mazmun planidagi asosiy hodisa nima?
 A. Leksik ma'no.
 B. Stilistik bo'yoq.
 D. Stilistik belgi
 E. Integral sema
40. Semantik tarkibida bitta leksik ma'no bo'lgan leksemalar qanday so'zlar sanaladi?
 A. Polisemantizmlar (ko'p ma'noli so'zlar)
 B. Monosemantizmlar (bir ma'noli so'zlar)
 D. Omonimlar (shakli bir xil so'zlar)
 E. Sinonimlar
41. Etimologiya nima?
 A. So'zlarning ma'no xususiyatini o'rganuvchi fan.
 B. So'zlarning kelib chiqishini o'rganuvchi fan.
 D. So'zlarning kelib chiqishi.
 E. B va D.
42. Onomasiologiya nimani o'rganadi?
 A. So'zlarning qo'llanishini.
 B. So'zlarning bog'lanishini.
 D. So'zlarning morfemik va fonetik tarkibini.
 E. Narsa-hodisalarning nomlanish prinsiplarini.
43. Tilning lug'at tarkibi qanday birliklarni o'z ichiga oladi?
 A. So'zlarni. B. Morfemalarni. D. Frazemalarni. E. A va D
44. So'zlardagi integral va differensial semalar qaysi qatorda to'g'ri ta'riflangan?
 A. Differensial semalar – bir necha leksemaning leksik ma'nolaridagi farqlanmaydigan semalar.

- B. Integral semalar – bir necha leksemaning leksik ma'nolaridagi farqlanmaydigan (umumiy)semalar.
D. Differensial semalar – bir necha leksemaning leksik ma'nolaridagi farqlanuvchi semalar.
E. B va D

45. Leksik ma'no taraqqiyotining qanday ko'rinishlari bor?

- A. Leksik ma'no taraqqiyotining fonetik yo'li.
B. Leksik ma'no ko'chishi.
D. Leksik ma'no hajmining o'zgarishi.
E. B va D

46. "Tog'ning ko'rki tosh bilan, odam ko'rki bosh bilan" maqolidagi qaysi so'z ko'chma ma'noda qo'llangan?

- A. Tog' B. Ko'rk D. Tosh E. Bosh.

47. Qanday so'zlar sinonimlar sanaladi?

- A. Shakli bir xil, ma'nolari har xil so'zlar.
B. Birlashtiruvchi ma'nolari bir xil, shakli har xil so'zlar.
D. Ko'p ma'noli so'zlar.
E. Zid ma'noli so'zlar.

48 Semantik tarkibida bir necha leksik ma'no bo'lgan leksemalar qanday so'zlar sanaladi?

- A. Sinonimlar (bir ma'no atrofida birlashgan bir necha so'z).
B. Omonimlar (ma'nosi har xil, shakli bir xil so'zlar).
D. Polisemantizmlar (bir necha ma'noga ega bir so'z).
E. Monosemantizmlar (bir manoli so'zlar).

49. Semalar nima?

- A. So'zning tovush tarkibi.
B. Leksik ma'no va uslubiy bo'yoqlar.
D. So'zning grammatik ma'nolari.
E. Leksik ma'noning semantik qismlari.

50. Leksik ma'no va leksik qo'llash qaysi qatorda to'g'ri ta'riflangan?

- A. Leksik ma'no so'zning individual qo'llanishi mahsulidir.
B. Leksik ma'no so'zning tildagi ma'nosidir. U jamiyat a'zolari tomonidan tan olingan uzual ma'no sanaladi.
D. Leksik qo'llash ayrim muallif tomonidan so'zga yangicha "tus" berib, ishlatishdir. Uning bu "ma'nosi" jamiyat a'zolari uchun yot bo'lib, faqat muallif kontekstidagina anglashiladi., shunga ko'ra okkazonal ma'no sanaladi.
E. B va D.

51. "Dasturxonga boqqan do'st emas" maqolidagi "dasturxon" so'zining ma'nosi qanday yo'l bilan ko'chgan?

A. Funksiyadoshlik.

B. Sinekdoxa.

D. Metafora

E. Metonimiya

IX. Adabiyotlar

(*Darslik, qo'llanma va risolalar*)

1. Abduazizov A. O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. – T.: "O'qituvchi", 1992.
2. Abdullayev Yo'ldosh. Hamrohim. – T.: "O'qituvchi", 1996.
3. Abdurahmonov G', Mamajonov S. O'zbek tili va adabiyoti. – T.: "O'zbekiston", 2002.
4. Azizov O. Tilshunoslikka kirish. – T.: "O'qituvchi", 1996.
5. Aliyev A., Nazarov K. O'zbek tili ma'lumotnomasi. – T.: "Fan", 1992.
6. Ashirboyev S. Qutbning "Xusrav va Shirin" dostoni va o'zbek adabiy tili. – T.: "O'qituvchi", 1997.
7. Джамалханов Х.А. Основы узбекской графики. – T.: "Фан", 1991.
8. Jamolxonov H.A. Fonetika, fonologiya va orfoepiya. Ma'ruzalar matni. – T.: Nizomiy nomli TDPU bosmaxonasi, 1999.
9. Jamolxonov H.A. Grafika va orfografiya. Ma'ruzalar matni. – T.: Nizomiy nomli TDPU bosmaxonasi, 1999.
10. Jamolxonov H.A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanmasi. 1-qism. – T.: Nizomiy nomli TDPU bosmaxonasi, 2004.
11. Jamolxonov H.A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanmasi. 2-qism. – T.: Nizomiy nomli TDPU bosmaxonasi, 2004
12. Yo'ldoshev B. Frazeologik uslubiyat asoslari. – Samarqand, 1999.
13. Yo'ldoshev Bekmurod. Hozirgi o'zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari. Filol. fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertasiya. – T.: 1994.
14. Mahmudov A. Unlilar. – T., O'zFA "Kibernetika" ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi. 1993.
15. Milletlerarası Gag'daş turk alfabeleri Sempoziyumi (18–20 Kasim, 1991). Yayına hazirlayan: do. Dr. Nadir Devlet. M. Ü. Turkiyat Arařtırmaları Enstitüsü; – Istanbul, 1992.
16. Mirtojiyev M.M. O'zbek tili fonetikasi. – T.: "Universitet" 1998.
17. Muxtorov A, Sanaqulov U. O'zbek adabiy tili tarixi. – T.: "O'qituvchi", 1995.
18. Ne'matov H. O'zbek tili tarixiy fonetikasi. – T.: "O'qituvchi", 1992.
19. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – T.: "O'qituvchi", 1995.
20. Nurmonov A.N. O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. – T.: "O'qituvchi", 1990.

21. Nurmonov A., Yoʻldoshev B. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. – T.: “Sharq”, 2001.
22. Otamirzayeva S., Yusupova M. Oʻzbek tili. – T.: 2004 (1-nashr-2002).
23. Расулов Р. Лексико–семантические группы глаголов состояния и их валентность. – T.: 1991.
24. Rasulov R. Oʻzbek tili feʼllarining semantik strukturasi. 1- qism. – T.: 1991.
25. Rahmatullayev Sh.U. Oʻzbek tilining yangi alifbosi va imlosi. – T.: “Universitet”, 1999 (qayta nashri – 2002).
26. Розенталь Д.Э., Голуб И.Б., Теленкова М.А. Современный русский язык. – Москва: “Айрис Пресс Рольф”, 2001.
27. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh., Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Qayta ishlangan, toʻldirilgan 3- nashri. – T.: “Oʻzbekiston”, 1992.
28. Toʻychiboyev B. Oʻzbek tili tarixiy fonetikasi. – T.: “Oʻqituvchi”, 1990.
29. Toʻychiboyev B. Oʻzbek tilining taraqqiyot bosqichlari. – T.: “Oʻqituvchi”, 1996.
30. Oʻzbek orfografiyasining asosiy qoidalari. – T.: “FAN”, 1956.
31. Oʻzbek tilining asosiy imlo qoidalari. – T.: “Oʻqituvchi”, 1995.
32. Qilichov E. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Maʼruza matnlari. Toʻldirilgan 2- nashri. – Buxoro: “Buxoro universiteti” nashriyoti, 2001.
33. Qurbonova M. Fitrat – Tilshunos. – Toshkent: “Universitet”, 1996.
34. Qurbonova M. Abdurauf Fitrat va oʻzbek tilshunosligi. – T.: “Universitet”, 1997.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
Fonetika va fonologiya.....	4
Grafika va orfografiya.....	13
Orfoepiya.....	17
Leksikologiya(leksemika).....	18
Frazeologiya.....	33
Leksikografiya.....	38
Mustaqil nazorat uchun savolnoma va topshiriqlar.....	41
1. Og'zaki nazorat uchun savolnoma va topshiriqlar.....	41
2. Yozma nazorat ishlari variantlari.....	44
A. Kirish, fonetika va fonologiya.....	44
B. Fonetika, fonologiya, orfografiya va orfoepiya.....	51
D. Leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya.....	57
3. Test shaklidagi nazorat uchun savol va topshiriqlar.....	66
A. Kirish. Fonetika va fonologiya.....	66
B. Grafika. Orfografiya. Orfoepiya.....	74
D. Leksikologiya. Frazeologiya. Leksikografiya.....	88
Adabiyotlar.....	96

8/9 =

012 121 / 6 - 4

33 - buyurtma 300 nusxa. Hajmi 6,2 b.t.
2007 yil 17 mayda bosishga ruxsat etildi.
Nizomiy nomidagi TDPU Rizografida
nashr qilindi.